

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

MEHNAT TA'LIMI VA UMUMIY TEXNIKA FANLARI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tasviriy san'at va mehnat ta'limi
fakulteti dekani v.b. :

_____ A. Qo'shoqov

_____ 2014 y.

5142000 – Mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

Mehnat darslarida o'quvchilarni asalarichilikni rivojlantirishga oid

mavzularni o'rgatish

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: 401-guruh tolibi
Tursunov Erkin

Ilmiy rahbar: o'qit. Orishev J.B.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

o'qit. Orishev J.B. _____

BMI Mehnat ta'limi va umumiy texnika fanlari
kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror № _____
_____ 2014 y) himoyaga tavsiya etilgan

Kafedra mudiri:

p.f.n., dots. B.X. O'razov _____

Jizzax -2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 1 BOB. TAYANCH MAKTABLARINING MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA CHORVACHILIKKA OID MAVZULARGA TAALUQLI DARS MATERIALLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK VA USLUBIY TAHLILI.....	9
1.1. Chorvachilik asoslari va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganishga taalluqli bo'lgan dars materiallarining tahlili	9
1.2. Asalarilari haqida ma'lumot beruvchi o'rganishga mo'ljallangan dars materiallarning pedagogik – psixologik tahlili.....	17
1.3. Asalarichilikni tashkil etishga oid dars materiallarining pedagogik – psixologik tahlili	23
 II BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIGA "QISHLOQ XO'JALIGI ASOSLARI" YO'NALISHI BO'YICHA ASALARICHILIKKA TAALLUQLI MAVZULARNI O'QITISHGA USLUBIY MULOHAZALAR	30
2.1.Chorvachilikka oid mavzularni o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir uslubiy mulohazalar.....	30
2.2. Asalarichilikni tashkil etishga oid mavzularni o'rgatishga taalluqli bo'lgan dars ishlanmasi.....	45
 XULOSA.....	54
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	55

KIRISH

Bugungi kunda maktablarda mehnat ta'limini o'qitish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ishlab chiqilgan Davlat Ta'lim standartlari va o'quv dasturi asosida olib boriladi.

Mehnat ta'limi bo'yicha Davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o'quvchilarning mehnat ta'limi fanidan tayyorgarlik darajasining me'yorlari ifodalanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini o'quv rejasida mehnat ta'limi o'quv faniga 1-4 sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7 sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9 - sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo'lib 408 soat vaqt ajratilgan.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb -hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog'ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va mashina elementlari yo'nalishlari bo'yicha, bilim va ko'nikma va malakalarni egallashlari ko'zda tutiladi.

Mehnat ta'limining maqsadi :

-o'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, kasbiy moyilliklariga ko'ra, kasb -hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan xislatlarini, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;

-xalq xo'jaligining turli sohalari, ularda ishlatiladigan texnika va texnologiya to'g'risida bilimlar berish, mehnat faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishilariga imkon yaratish, ularni xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalariga o'rgatish;

-yuqori sinflarda mehnat ta'limi ishchi mutaxassisliklarning kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan turli xil asbob uskunalar, jihozlar, moslamalardan

foydalanishni o'rgatish; mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni; texnologik bilmi va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya -gigiyena qoidalari asoslarini o'rgatish;

- turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taalluqli dastlabki asboblardan, ma'lumotnomalardan foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, olingan natijalarni qo'yilgan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o'rgatish;

- o'quvchilarga bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirishga va yetishtirilgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish vositalarini o'rgatish;

- mehnat ta'limi va kasbgacha tayyorlash jarayonlarida axborot texnologiyalari va kompyuter texnikasi, yangi texnologiya va jihozlarning qo'llanilishi sohaslarini zamonaviy talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda o'rganishlarini ta'minlash.

O'quvchilar ta'minlanishi zarur bo'lgan mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish ta'limi mazmuni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga beriladigan mehnat ta'limi mazmuni negizini ifodalaydi. Ushbu ta'lim mazmuni har bir hududda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish sohalari mazmuniga mos holda o'quv dasturi va darsliklarni yaratishda asosiy mezon vazifasini bajaradi va uni amalga joriy etish uchun xizmat qiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Yo'qsak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Endilikda oldimizda eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy – ma'rifiy, ta'lim – tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi

bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat" ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan [4].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni ongli va mustaqil kasb – hunar tanlashi uchun shart sharoit yaratish kasb – hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligining ta'sirchan vositalari va usullarini tadbiq etishga qodir hamda tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb – hunar va mutaxassisliklar bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatib turgan mehnat ta'limi yo'nalishlarining asosiy vazifalaridan biridir. Chunki, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining jamiyatda o'z o'rnini topishi, hayotda faol ishtirok etishi, vijdonan xizmat qiladigan kasb – hunar sohiblari bo'lib etishishlarida mehnat ta'limining imkoniyatlari kattadir.

Qayd etilgan fikr – mulohazalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganiladigan mehnat ta'limning hozirgi va istiqboldagi ustivor vazifalarini belgilab olishda asosiy mezondir. Chunki, mehnat ta'limi o'zining mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra barcha tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbiq etishni ko'zda tutadi. Shu nuqtai nazardan olganda mehnat ta'limi nazariya va amaliyotning birligini ta'minlovchi, o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olishlariga imkon yaratuvchi asosiy omil hisoblanadi. Bunda ayniqsa, mehnat ta'limi o'qituvchilarining bilim darajasi va umumiy saviyasi muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida, mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashni takomillashtirish, bu tizimning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ta'limi mazmuni quyidagi uchta yo'nalish va ular ichidagi bo'limlarga bo'linadi:

1. Texnologiya va dizayn yo'nalishi:

- metallga ishlov berish texnologiyasi;
- yog'ochga ishlov berish texnologiyasi ;
- elektrotexnika ishlari;
- uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash.

2. Servis xizmati yo'nalishi:

- pazandachilik asoslari;
- gazlamaga ishlov berish texnologiyasi;
- buyumlarni tamirlash texnologiyasi

3. Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi:

- o'simlikshunoslik;
- qishloq xo'jalik asbob-uskunasi va undan foydalanish;
- qishloq xo'jaligi mashinalari;
- chorvachilik asoslari;
- elektrotexnika ishlari;
- uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash

Davlat ta'lim standartlarida Qishloq xo'jaligi asoslarini o'rgatish va o'quvchilarga shu yo'nalish bo'yicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga alohida o'rin ajratilgan.

Mehnat ta'limi fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti (DTS) va o'quv rejasini tahlil qilar ekanmiz, unda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan minimal bilim, ko'nikma, malakalarning mazmunida bir qator tushunchalar qatori asalarichilikka oid bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar ham egallashi lozim ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Qishloq xo'jaligining muhim bir tarmog'i hisoblangan chorvachilik va uning alohida sohalari haqida o'quvchilarga bilim berishda BMTO'larida choorvachilik asoslariga oid bilim, malaka va ko'nikmalarining shakllanishi nihoyatda muhim

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga ko'ra, 2013 yilda qoramolchilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik tarmoqlarini

rivojlantirish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish maqsadida respublikada yangi asalarichilik xo'jaliklari tashkil etish rejalashtirilgan.

Mehnat ta'limi fanini o'qitishda o'qituvchi mehnat ta'limining Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi tarkibiga kiruvchi chorvachilik asoslari to'g'risida o'quvchilarga yetarlicha bilim berishga e'tibor berishi va bu jarayonda bitiruvchi o'quvchilar chorvachilik to'g'risida quyidagi minimum bilimlarga ega bo'lishlari lozim:

... Chorva mollari. Chorvachiilk biologiyasi. Qoramolchilik, qo'ychilik, echkichiilk, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, quyonchilik, cho'chqachilik, mo'ynachilik va boshqalar. Chorvachiilkda naslchilik va selektsiya asoslari. Ozuqabop ekinlar. Chorvachilikda sanitariya gigiena, zootexnika, zooveterinariya asoslari. Chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish usullari. Inkubator–parrandachilik majmualari. Chorvachilikda tadbirkorlik asoslari. Ilg'or texnologiyalarni joriy etish istiqbollari va ularda iqtisodiy masalalar. .

Shunday muammolardan yana biri o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash muammosi. Buning uchun kasb ta'limi va mehnat ta'limi fanlarida ilmiy -uslubiy ishlarni jonlantirish zarur deb o'ylayman. Ushbu muammolar dolzarbligini e'tiborga olsak, o'quvchilarga tayanch bilimlarni yaxshi tushuntirmas ekanmiz, o'quvchi kelajakda kasb tanlashda yana xatoga yo'l qo'yadi. Bu muammolar bajarmoqchi bo'lgan bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlashga asos bo'ladi deb o'ylaymiz. Shu boisdan ham ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusini "Mehnat darslarida o'quvchilarni asalarichilikni rivojlantirishga oid mavzularni o'rgatish" deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga «Qishloq xo'jaligi asoslari» yo'nalishidagi mashg'ulotlarni o'tish

saviyasini oshirishni asalarichilikni tashkil etishga oid mavzularni o'rgatish misolida o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalarni hal qilish lozim :

- chorvachilik asoslari va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganishga taalluqli bo'lgan dars materiallarini tahlil qilish;

- asalarilari haqida ma'lumot beruvchi o'rganishga mo'ljallangan dars materiallarini pedagogik – psixologik tahlil qilish;

- asalarichilikni tashkil etishga oid dars materiallarini pedagogik –psixologik tahlil qilish;

- chorvachilikka oid mavzularni o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir uslubiy mulohazalar berish;

- asalarichilikni tashkil etishga oid mavzularni o'rgatishga taalluqli bo'lgan dars ishlanmasini tuzish.

1 BOB. TAYANCH MAKTABLARINING MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA CHORVACHILIKKA OID MAVZULARGA TAALLUQLI DARS MATERIALLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK VA USLUBIY TAHLILI

1.1. Chorvachilik asoslari va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganishga taalluqli bo'lgan dars materiallarining tahlili

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon chorvachilikni rivojlantirishga, chorva mahsulotlarini ko'proq yetishtirish bilan birga ularning sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada mustahkam yem-xashak bazasini yaratish, mollar tuyog'ini ko'paytirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, chorvachilik tarmog'ini jadallashtirish va ixtisoslashtirish, shuningdek, sutchilik komplekslari va chorvachilik fermalarini tashkil etish muhim vazifaga aylangan. Binobarin, chorvachilik xo'jaliklarida malakali ishchi kadrlar etarli bo'lishi, ularning bilim doirasi keng bo'lib, mehnat va texnologik jarayonlarni to'g'ri tushunadigan hamda mexanizatsiya, avtomatika va elektr quvvati bilan ishlaydigan asbob-uskunalarni boshqara oladigan bo'lishlari lozim.

Mehnat ta'limi bo'yicha DTS va o'quv dasturi asosida yozilayotgan mazkur bitiruv malakaviy ishida chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, chorvachilik tarmoqlari va yo'nalishlari, xususan, zooveterinariya va quyonchilik asoslari hamda ushbu mavzularni o'quvchilarga o'rgatish uslubiyati haqida so'z yuritiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasb tanlashga yo'naltirish umumta'lim maktablarining asosiy maqsadlaridan biridir. Ushbu maqsadga erishish uchun

BMIning kirish qismida ko'rib o'tganimizdek mehnat ta'limi fanining alohida o'rni mavjudligi ta'kidlangan.

BMI mavzusi va maqsadidan kelib chiqib o'quv rejasini tahlil qiladigan bo'lsak, unda «Qishloq xo'jaligi asoslari» yo'nalishida “Qishloq xo'jaligi mehnati” bo'limida chorvachilik bo'yicha o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirish uchun ma'lum bir dars soatlari ajratilgan.

Shu boisdan ushbu paragrafda qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan chorvachilikning ahamiyati va uning sohalariga oid dars materiallarini pedagogik –psixologik va uslubiy tahlil qilishga harakat qildik.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining g'oyat muhim tarmog'i bo'lib, xalqimizni oziq –ovqat mahsulotlari hisoblangan go'sht va go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlari, tuxum, shuningdek engil sanoatni turli xil xom ashyo –jun, teri, mo'yna, qorako'l teri, tivit va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlash, chorva mollari va parrandalarni xilma –xil vitaminli oziqlar bilan yil mobaynida uzluksiz ta'minlab turish chorvachilikning asosiy sharti hisoblanadi.

G'allachilik, mevachilik, sabzavotchilik, paxtachilik va bog'dorchilik kabi sohalarining rivojlanishi ham chorvachilikning ravnaq topishi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki g'allachilikda etishtiriladigan don mahsulotlari, somon va poxol chorva mollari uchun qimmatli oziq hisoblanadi. Mevachilik va sabzavotchilik chiqindilari hamhar xil hayvonlar uchun sursuv va vitaminli oziq sifatida ishlatiladi. Paxtachiilkdan chiqadigan chigit kunjarasi, shulxa va g'o'zapoya kabilar chorva mollari uchun to'yimli oziq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda chorvachilik eng sertarmoqli sohalardan biridir. Uning asosiy tarmoqlari qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, quyonchilik, mo'ynachilik (norkachilik, nutriyachilik va

hakoza), asalarichilik, ipakchilik bo'lsa, keyingi yillarda u yangi tarmoqlar, ya'ni ko'l baliqchiligi, bedanachilik kabi sohalar bilan boyidi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishning muhim omillaridan yana biri ularni ixtisoslashtirish, yiriklashtirish va markazlashtirish hamda jadallashtirishdan iborat. Buning uchun mustahkam va barqaror em –xashak bazasini yaratish, em –xashakdan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, ularning to'yimlilikini oshirish va sifatini yaxshilash, ayniqsa tarkibidagi oqsil miqdorini ko'paytirish, sun'iy usulda vitaminlar, aminokislotalar, mikroelementlar, antibiotiklar va o'stiruvchi moddlar ishlab chiqarish talab etiladi. Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishda omixta em, donador va briket oziq tayyorlash ishlari muhim ahamiyatga ega.

Chorvachilikni jadallashtirish ko'p jihatdan chorva mollari va parrandalar mahsuldorligiga bog'liq. Shunigdek, naslchilik va seleksiya ishlarini takomillashtirish, yangi sermahsul zot va guruhlar yaratish, mavjud zotlarni yaxshilash, duragaylash ishlarini kengaytirish, sanoat asosida chatishtirish tadbirlarini joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Chorvachilikni jadal rivojlantirish ko'p jihatdan fan yangiliklari, ilg'or tajriba, yangi texnika va texnologiyalarni tezroq joriy etishga ham bog'liq.

Qoramolchilik. Qoramolchilik chorvachilikning muhim va etakchi tarmog'i hisoblanadi. Xalq xo'jaligi uchun qimmatli mahsulotlar (go'sht, sut, yog', teri va h.k) yetkazib berishda qoramolchilik muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki sut va go'sht xalqimizning kundalik hayotida salmoqli o'rin egallaydi. Binobarin, respublikamizda yetishtirilayotgan sutning deyarli 98 foizidan ko'prog'i sigirlardan olinadi va go'shtning 55-60 foizi qoramol hissasiga to'g'ri keladi.

Sut yosh bolalar, qariyalar va ayniqsa, bemorlar uchun eng muhim oziq hisoblanadi. U o'zining boy ximiyaviy tarkibi va tez hazm bo'lish xususiyati bilan boshqa mahsulotlardan farq qiladi. Sutdan har xil mahsulotlar (sariyog', qaymoq,

smetana, pishloq, tivorog, suzma, qatiq, prostokvasha) tayyorlanadi. Shuningdek, undan uzoq muddat foydalanish va sut etishmaydigan zonalar uchun quyultirilgan sut konservalari, qaymoq aralashtirilgan kofe, kakao va sut uni tayyorlanadi.

Sigir sutining yengil sanoat uchun ham ahamiyati katta. Undan kazein moddasi olinadi. Kazeindan esa tugma kinoplyonka, sun'iy jun, elim va hakoza lar ishlab chiqariladi. Mollarning terisi engil va poyabzal sanoatlari uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi.

Mol go'ngi ekin maydonlarining hosildorligini oshirishda qimmatli o'g'it sifatida ishlatiladi. Shuningdek, qoramolarning qoni va ayrim garmonlari tibbiyotda turli dorivorlar (qon zardobi, gemoglobin, gematin, gmotagin va hakoza lar) tayyorlashda ishlatiladi. Mollarning inson uchun uncha ahamiyati bo'lmagan ichki a'zolari, kalla –pochasi, qoni va suyuyaklari maydalanib ayrim turdagi hayvonlarga mineral oziq sifatida beriladi. Qoramollarning shoxi, tuyog'i va suyaklari galanteriya va bezak ishlarida hamda durodgorlik elimi tayyorlashda ishlatiladi. Shunday qilib qoramollarning biror qismi ham chiqitga chiqmaydi. Binobarin chorvachiilikning etakchi hisoblangan bu tarmog'i xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega .

Qo'ychilik. Qo'ychilik chorvachilikning muhim tarmog'i bo'lib, sanoat uchun jun, mo'yna, qorako'l teri hamda aholi uchun oziq –ovqat sifatida go'sht, yog', sut etishtiradi.

Qorako'l qo'ylardan olinadigan sifatli rang-barang tovlanib turadigan qorako'l , qorako'l-qorako'lcha, qorako'lcha deb ataladigan mo'yna teri dunyo bozorida oltin bahosiga sotiladi. Qorako'l terilaridan bosh kiyimlar yoqa tayyorlanadi va yuqori narxlardan baholanadi. Qo'y va qo'zi go'shti respublikamizdagi go'sht balansining 10-12 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, qo'y sutidan turli xil mahsulotlar, pishloq, brinza kabilar tayyorlanadi. Umuman, qo'ylarning asosiy mahsuloti jun hisoblanadi, ulardan olinadigan sifatli va xilma-

xil junlardan boshqa biror hayvondan olib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, qo'y junini biror qishloq hayvoni juni bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Echkichilik. Echkichilik ham chorvachilikning serdaromad va serpusht tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq xalq xo'jaligi uchun qimmatli tivit, go'sht, teri va sut mahsuloti etishtirib beradi. Echkilardan olinadigan tivit nozikligi (diametri 14-20 mikron), mayinligi, engil va pishiqligi hamda chidamliligi bilan boshqa turdagi tivitlardan ustun turadi. Bunday tivit asosan angor zot va boshqa serjun echkilardan olinadi. Ular tivitining uzunligi 9-12 sm ga, ayrim hollarda 20-25 sm ga etadi. Ulardan qimmatbaho ro'mol, trikotaj kiyimlar, gilam va hakoza tayyorlanadi. 1,5 -3 haftalik echki bolalarining mo'ynasidan har xil kiyim bosh tikiladi. Echki suti sevib iste'mol qilinadi. Echki go'shti sifatiga ko'ra qo'y go'shtiga yaqin turadi, to'yimliligi bo'yicha unga teng keladi. Go'shtga boqilgan echkilar 20-28 kg go'sht va 4-6 kg yog' qiladi. Axta qilingan takalarning go'sht chiqishi 50-55 % ga boradi. Echki shohidan turli bezakli buyumlar, tuyog'idan elim tayyorlanadi.

Parrandachilik. Parrandachilik chorvachilikning serdaromad, serpusht va tez etiluvchan tarmog'i hisoblanadi. U xalqimizga ko'plab sifatli parhez taom – tuxum va parranda go'shti etkazib berishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, tovuq, o'rdak, g'oz va kurkachilik bilan shug'ullanuvchi tarmoqlari qishloq xo'jaligi parrandachiligning asosiy va etuk sohasi hisoblanadi. Ulardan qisqa vaqt ichida ko'p miqdorda mazali go'sht olinadi. Parranda go'shti tez hazm bo'lish xususiyatiga ko'ra barcha turdagi chorva mollari go'shtidan ustun turadi. Tarkibi ham har xil ximiyaviy elementlarga boy bo'ladi. Jumladan 2 oylik jo'ja go'shtida 20 % ga yaqin oqsil, 10-12 % yog' bo'ladi. Tuxumida 13 % oqsil, 11 % yog', 1 % mineral moddalar va vitaminlar kompleksi kuzatiladi. To'yimliligi jihatidan 10 dona tovuq tuxumi 0,8 kg mol go'shtiga to'g'ri keladi. Tuxum tarkibida 85 % ga yaqin suv bo'lib, qolgani sof oqsil, vitamin va fermentlardan iborat. Tuxumning sariq moddasida 52 % suv, 32 % yog', 16 foizga yaqin oqsil bo'ladi. Bundan

tashqari ulardan engil sanoat uchun par va pat etishtirib beriladi, go'ngidan o'qit sifatida foydalaniladi. Har bir parrandadan o'rtacha 50 g par va pat olinadi.

Yilqichilik. Yilqichilik chorvachilikning muhim sohasi hisoblanadi. Respublikamizning ayrim tumanlarida qishloq xo'jaligi ishlarining bir qismi (qariyb 20 %) ot kuchi bilan bajariladi. Masalan, otlar aravaga qo'shilgan holda qishloq xo'jalik mashinalariga yoqilg'i va suv tashib beradi, shuningdek ildizmevalarga ishlov brishda, chorvachilikda ayrim transport yordamida bajariladigan ishlarni amalga oshirishda va boshqa bir qator ishlarni bajarishda yaqindan yordam beradi. Bundan tashqari tog'li tumanlarda, ya'ni transport vositalari yura olmaydigan erlarda otlar bimalol yo'q tashish ishlarini bimalol bajara oladi. Yaylovda cho'pon va molboqarlar uchun otlar asosiy transport vositasi hisoblanadi. Chegaralarni qo'riqlashda, ayniqsa tog' va o'rmon hamda cho'l zonalarida otlar posbonlarimizning do'sti, uzoq masofalarga olib borishda muhim transport vositasi hisoblanadi. Sport o'yinlarida ham yilqilardan foydalanish yildan –yilga kengayib bormoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Qozog'iston davlatlarida birorta yirik an'ana yoki bayram otlar ishtirokisiz o'tmaydi.

Otlar o'zining turli xil mahsulotlari (go'sht, qimiz, teri va boshqalar) bilan katta xalq xo'jaligida ahamiyatiga 'ga. Masalan, qimiz aholining eng foydali va shifobaxsh ichimliklaridan hisoblanadi. U bir qator kasalliklar (sil, ichak, oshqozon va boshqalar) ni davolashda salmoqli o'rin egallaydi. Hozirgi vaqtda qimiz ishlab chiqarish ayniqsa Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlarida, shuningdek Tatariston, Yoqutiya viloyatlarida yaxshi rivojlangan.

Tuyachilik. Tuyalar o'zlarining biologik xususiyatlariga ko'ra barcha turdagi chorva mollaridan farq qiladigan, asosan suvsiz dasht va sahrolar zonasiga tarqalgan hayvon hisoblanadi. Tuyalar asosan Markaziy Osiyo respulikalarida, xususan ko'p yerlarda qorako'lchilikda foydalaniladigan qimmatli ish hayvonidir. Tuyalar shuningdek, Qozog'iston va Qalmiq o'lkasida, Volgograd cho'llarida

hamda ozroq bo'lsada Ozarbayjon, Saratov, G'arbiy Sibir, Orenburg, Rostov, Krasnoda o'lkasida, Chita viloyatida ham uchrab turadi. Ko'p joylarda tuyalardan transport vositasida sifatida foydalanilsa, ularning yana qimmatli tomoni ma'lum miqdorda go'sht, jun va sut yetishtirib berishdan iboratdir.

Umuman qishloq xo'jaligi hayvonlari ichida birorta hayvon turi yo'qqi ular tuyalardek cho'l, dasht va sahro sharoitiga nihoyatda yaxshi moslashgan bo'lsin.

Asalarichilik qishloq xo'jaligining bir sohasi, asal, mum olish va hasharotlar bilan changlanadigan ekinlarni changlatish uchun asalari boqish demakdir. Qadim zamonlarda odamlar asal va asalari mumini daraxtlarning kovaklaridan olishgan. Asalarilarni qutilarda boqish usuli 19-asrda paydo bo'lgan. Asalarisimonlar mo'tadil va subtropik iqlimli o'lkalarda rivojlangan. O'zbekistonda Asalari oilalarini ko'paytirish uchun maxsus joy ajratiladi. Odatda bunday joy asalarilarni qishda asrashga ham mo'ljallangan bo'ladi. Buning uchun daraxt va butalar bilan o'ralgan, shamol tegmaydigan joylar tanlanadi; bu daraxtlar ayni vaqtda asalli o'simliklar bo'lishi kerak shu bilan birga, ular asalari qutilarini oftobdan saqlaydi. O'zbekistonda asalarilar ko'klamdan to kech kuzgacha serasal o'simliklar ko'p bo'lgan tog'larda asralib, qish boshlanishi oldidan qishlov joyiga keltiriladi. Shu yo'l bilan yillik asal yig'imi oshiriladi, shunday joylar olmazor, bedazorlar va g'o'za paykallari yonida barpo etiladi.

Pespublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon chorvachilikni rivojlantirishga, chorva mahsulotlarini ko'proq yetishtirish bilan birga ularning sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada mustahkam yem-xashak bazasini yaratish, mollar tuyog'ini ko'paytirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, chorvachilik tarmog'ini jadallashtirish va ixtisoslashtirish, shuningdek, sutchilik komplekslari va chorvachilik fermalarini tashkil etish muhim vazifaga aylangan. Binobarin, chorvachilik xo'jaliklarida malakali ishchi kadrlar etarli bo'lishi, ularning bilim doirasi keng bo'lib, mehnat va texnologik jarayonlarni to'g'ri tushunadigan hamda mexanizatsiya, avtomatika

va elektr quvvati bilan ishlaydigan asbob-uskunalarni boshqara oladigan bo'lishlari lozim.

Mehnat ta'limi bo'yicha DTS va o'quv dasturi asosida yozilayotgan mazkur bitiruv malakaviy ishida chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, chorvachilik tarmoqlari va yo'nalishlari, xususan, asalarichilikni hamda ushbu mavzularni o'quvchilarga o'rgatish uslubiyati haqida so'z yuritiladi.


Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasb tanlashga yo'naltirish umumta'lim maktablarining asosiy maqsadlaridan biridir.

1.2. Asalarilari haqida ma'lumot beruvchi o'rganishga mo'ljallangan dars materiallarning pedagogik –psixologik tahlili

Asalari oilasi ona, ishchi va erkak arilardan iborat. Ona asalari bitta (bo'yi 20-25 mm, vazni 220-250 mg) bo'lib, tuxum qo'yish va oilani boshqarish vazifasini bajaradi. Qanoti tanasining yarmini qoplaydi, xartumi ishchi arilarnikiga qaraganda qisqa, urug'langandan keyin bir sutkada 1500-2000 ta tuxum qo'yadi. Ona ari erkak ari bilan havoda qo'shilishadi. Ishchi arilar (bo'yi 12-14mm, vazni 100 mg) oilada 60-70 mingta bo'lib, qishda kamayadi, soatiga 60 km tezliqia ucha oladi. Oiladan 2-3 km va undan ham uzoq masofaga uchib borib, shira olib kelish va gul changini yig'ish, nektarni asalga aylantirish, mum ishlash, qurtlarini boqish, katak qurish, uyasini qo'riqlash kabi ishlarni bajaradi. Erkak asalarilar (bo'yi 15-17 mm, vazni 180-190 mg) yozda ona arilar urchiydigan paytda yashaydi, qish kirish oldidan ularni ishchi arilar haydab chiqaradi. Erkak asalarilarning vazifasi nasl qoldirish bo'lib, ular tayyor ovqat hisobiga yashaydi. Asalari oila a'zolarining xizmat faoliyati o'zaro bog'liq bo'lganidan ularning birortasi ham mustaqil hayot kechira olmaydi. Asalarining bir juft elaksimona va 3 ta oddiy ko'zi bo'ladi. Elaksimona ko'z bilan, asosan uzoqni, oddiy ko'z bilan gulga qo'ngandagina ko'radi.

O'zbekistonda asalari oilasi bir yilda 140-150 kg asal to'playdi, bundan 100 kg o'z ta'minotiga sarflansa, 40-50 kg ajratib olinadi. Asalari ramkasidagi asal uning ta'minotiga yetarli bo'lmasa, ari sun'iy tayyorlangan shira bilan boqiladi. Bunda 1 l suvga 1 kg qand solib qaynatiladi, Tayyorlangan shira sovigandan so'ng asalari uyalariga qo'yiladi. O'zbekistonda asalarining O'rta rus qoramtir o'rmon, Kavkaz kul rang tog', Uzoq Sharq, Italiya, Ukraina kabi zotlari bor. O'rta rus qoramtir o'rmon asalarisi tez rivojlanishi, ko'p asal to'plashi, sovuqqa chidamliligi bilan ajraladi. Xartumi 6 mm Kavkaz kul rang tog' asalarisi yuvoshligi va xartumining uzunligi (6,6-7,1 mm) bilan dunyoga mashhur. Uzoq Sharq asalarisi

qisqa muddatda ko'p asal to'plashi va chirish kasalliklariga chidamliligi bilan farqlanadi. Italiya asalarisi chidamli, mum katagida osoyishta yashaydi. Ukraina asalarisi yirik kumush, sariq rangli, uyasida asalari yelimi kam.



1.2.1-rasm. Asalarilarning oila a'zolari (chapdan o'ngga) urg'ochi asalar, ishchi asalar va erkak asalar.

Asalarilar oilasining hayoti nihoyatda murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Oilani tashkil etuvchi har bir individ ma'lum bir muayyan vazifani bajaradi. Shunga ko'ra xar bir oilada urg'ochi ari ishchi ari va erkak arilar bo'ladi (1.2.1-rasm). Ular o'zining tana tuzilishi, katta kichikligi va fiziologik xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan fark, kiladilar. Bu xususiyatga polimorfizm deyiladi. Polimorfizm, odatda, xar bir individ oilada ma'lum bir vazifa bajarishdan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda bajarilishi lozim bo'lgan ishning taqsimlanishi bevosita ularning barcha morfologik farqlariga bog'liq, bo'ladi .

Asalarilar oilasi bir butun va yagona biologik va xo'jalik birligi bo'lib ularni na erkagi, na urg'ochisi va na ishchisi o'z oilasidan ajralgan holda o'z vazifasini bajara olmaydi. Ular bir-birlari bilan muayyan, bog'liq, holda o'z faoliyatini ko'rsata oladilar. Asalarilarning xayoti va faoliyati tashki muhit sharoiti bilan

nihiyat bog'liq holda bo'ladi. Ularning oziq tuplashi, urchib ko'payishi, hayotchanligi, o'sishi va rivojlanishi ham tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Urg'ochi asalarilar oiladagi jinsiy organlari yaxshi rivojlangan yagona individlar. U tuxum qo'yishdan boshqa hech qanday vazifa bajarmaydi. Uning tanasi uzunchoq kelishgan bo'lib, uzunligi 20-25 mm, o'irligi 0,2 g atrofida bo'ladi. Uning qorni qanotlaridan bir oz uzunroq, bo'lib, 2 ta orqa oyog'ida gulchang yig'adigan savatchasi bo'lmaydi.

Urg'ochi asalari qo'ygan tuxumidan ishchi, erkak va yosh urg'ochi asalarilar vujudga keladi. Urg'ochi asalarilar bir-birlari bilan birga yashay olmaydilar. Ular orasida «jang» boshlanadi va faqat baquvvat va kuchlisi qolib ikkinchisi oilasini tashlab uchib ketadi. Lekin, kamdan-kam ikkita urg'ochi (qarisi va yosh urg'ochisi) vaqtincha birga, bir oilada, navbatchilik asosida yashashi xam kuzatilgan. Urg'ochi asalarilarning hayoti o'rtacha 5 yil bo'lib, ular 2 yoshdan so'ng otalangan tuxum qo'yishi susayadi. Bunday tuxumlardan ishchi asalari vujudga keladi. Otalanmagan tuxum qo'yish birmuncha ko'payadi va ulardan erkak asalarilar vujudga keladi. Binobarin, urg'ochi asalarilarni 2 yildan ortiq saqlash samara bermaydi. Ularning o'rniga mahsuldorligi yuqori bo'lgan oiladan chiqqan yosh urg'ochi asalari bilan almashtirish yaxshi natija beradi.

Erkak asalarilar. Ularning tanasi ishchi asalarilarnikidan kattaroq va silindr shaklida bo'ladi. Ularning uzunligi 15-17 mm, og'irligi 2,2 g. Ko'zlari nisbatan katta va murakkab, boshining tepa qismida bir-biriga juda yaqish joylashgan. Mo'ylovi 13 bo'rindan tashkil topgan. Ularda nish apparati bo'lmaydi. Qornida mum oynachalari va oyog'ida gul changini to'playdigan moslamalari ham bo'lmaydi. Erkak asalarilarning birdan bir vazifasi ypg'ochi asalari bilan juftlashish hisoblanadi. Erkak asalarilar asosan bahorda yangi oilaga ajrab chiqish oldidan vujudga keladi. Bitta oilada ularning soni bir necha yuzdan bir necha minggacha bo'lishi mumkin. Ular tayyor oziq-asal bilan oziqlanadi. Ayrim

hollarda ishchi asalarilar o'z hartumi bilan ularni oziqlantiradi. Asal to'plash mavsumi tugagach, erkak asalarilarni oiladan haydab chiqarishadi va ular tashqarida ochlikdan va sovuqdan halok bo'ladilar. Shuning uchun ham ularni «truten», ya'ni «tekinxo'r» nomi bilan ataydilar.

Ishchi asalarilar. Ular oilaning asosiy qismini tashkil etadi. Yoz oylari asalari oilasida 3000-4000 ishchi ari bo'ladi. Katta oilalarda esa ayrim xollarda ularning soni 80000-100000 ta bo'lishi aniqlangan. Ishchi asalarilar jinsiy organi yaxshi rivojlanmagan urg'ochi arilardir. Shuning uchun ham ular erkak arilar bilan juftlashish qobiliyatiga ega emaslar. Lekin, ayrim hollarda ular tuxum quysa, bu tuxumlardan fakat erkak arilar vujudga kelar ekan. Ishchi asalarilarning tanasi 12-14 mm, og'irligi o'rtacha 0,1 g atrofida bo'ladi. Ular yozda 5-6 hafta, qishda bir necha oy yashaydi. Ishchi asalarilar oilada turli xil vazifalarni bajaradi. Jumladan, nektar, gulchang va suv yig'adi. Nektardan asal ishlab chiqaradi va yosh avlodni tarbiyalaydi. Shuningdek mumdan qurilma yasaydi, uyani quriqlashadi va x., k. Shunga ko'ra ular tanasida ayrim uzgarishlarni vujudga kelishiga olib kelgan degan fikrlar mavjud. Jumladan, ularning xartumi urg'ochi va erkak arilarnikidan uzunroq,, qorin sternitlarida mum oynachalari va orqa oyoqlarida gul changini yig'adigan moslamasi bo'ladi.

Umuman, ishchi asalarilar oilasi faoliyatida hal qiluvchi rol uynaydi. Ular uyaning gaz, harorat rejimi va havo namligini ma'lum darajada saqlay oladilar. Shuningdek oziq zapasi tuplaydilar, uni kayta ishlaydilar. Yosh avlodni, erkak va urg'ochi arilarni tarbiyalaydilar.

Asalarilar kasalligi uch xil: infeksiyon, invazion va yo'qumsiz bo'ladi. Infeksiyon kasalliklarning qo'zg'atuvchisi o'simlik tanasidagi bakteriyalar, viruslar va zamburug'lar hisoblanadi. Invazion kasalliklarning kuzrag'uvchilari bir xujayrali va ko'p xujayrali parazit hayvonlardir.

Yuqumsiz kasalliklar asalari oilasining hayoti uchun kerak bo'lgan sharoitlarning buzilishi natijasida vujudga keladi. Agar bu sharoitlar tiklansa kasallik o'z-o'zidan yo'q, bo'lib ketadi.

Asalari oilalarini sog'aytirish uchun kasalliklarni o'z vaqtida aniqlab, unga qarshi ko'rashda davolash, sanitariya va profilaktika tadbirlarini olib borish talab etiladi.

Asalarilarning yuqumli kasalliklari quyidagilar: Yevropa chirish kasalligi, Amerika chirish kasalligi shular jumlasiga kiradi.

Invazion kasalliklari: Nozematoz, Akarapidoz, Braulyoz va Senotainioz kabilar hisoblanadi.

Asalari biti (*Braula soyesa*)-qo'sh qanotlilar turkumiga mansub jigar rang hasharot. Bo'yi 1-1,5 mm tanasi qora tukchalar bilan qoplangan, boshi katta, yalpoq, ko'kragi qisqa, qorni (tanasi) tuxumsimon cho'ziq, oyoqlari qisqa, tirnoqlari bor. Xonaki asalarilar hisobiga yashaydi. Asalarilarni qo'riqlash uchun uya tez-tez ko'zdan kechirib turiladi va asalari biti tuxumlari va qurtlari yo'qotib boriladi.

Asalari bo'risi filant (*Philanthus triangulum*) - Sphecidae oilasiga mansub hasharot, bo'yi 1,5 sm keladi. Uyasini yerga (1 m gacha chuqur kovaklarga) qo'yadi. Erkaklari o'simliklar bilan, urg'ochilari asalarilar bilan oziqlanadi, urg'ochisi asalarini belidan ezib, shirasini chiqaradi va shu bilan ovqatlanadi. O'ldirgan arilarini uyasiga olib borib, ular bilan bolalarini boqadi. Asalari bo'risi asalarichilikka katta ziyon yetkazadi. Ularni yo'qotish uchun uyalariga DDT, geksaxloran va boshqa zaharli moddalar purkaladi, asalari boshqa joyga ko'chiriladi.

Asalari yiring kasalligi asalarilarning qurti (lichinkasi) va g'umbagida uchraydigan yuqumli kasallik Bunda qurt va g'umbak chiriydi, yiringlaydi. U boshlang'ich davrda sezilmasligi ham mumkin. Bu kasallik bilan og'rigan asalari oilasida qurtlar bir tekis o'smaydi. Asalarilarning kasallanganini bilish uchun qurt

yoki g'umbakka gugurt cho'pi suqib olinsa, yiring cho'p bilan cho'zilib chiqadi. Asalari yiring kasalligi qurtda bo'lsa, Yevropa yiring kasalligi deb, g'umbapida bo'lsa Amerika yiring kasalligi deb ataladi. Ikkala kasallik ham O'zbekiston asalarilarida uchraydi. Asalari yiring kasalligiga qarshi ko'rash choralari; kasallik yengilroq bo'lsa, qurt va g'umbaklarga beriladigan qo'shimcha ozuqaga norsulfazol, penisillin va boshqa dorilar qo'shiladi, og'ir bo'lsa, asalari oilasining joyi yangilanib, shifobaxsh sharbat (1 l suvga 1 kg shakar, 1 g norsulfazol qo'shib tayyorlanadi) bilan (har bir oilaga 100 g dan har 4-5 kunda) oziqlantiriladi.

1.3. Asalarichilikni tashkil etishga oid dars materiallarining pedagogik – psixologik tahlili

Respublikamiz aholisini barcha turdagi qishloq, xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashda asal salmoqli o'rin egallaydi. Barcha turdagi o'simlik gullarini changlashda va ular xosildorligini oshirishda xam asalarilar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda ulardan sanoatimiz uchun zarur hisoblangan mum mahsuloti ham yetishtiriladi. Asalarilar tomonidan changlangan mevalarni mazasi, xushxo'rliigi va vazni oddiy tabiiy usulda changlangan mevalarga qaraganda birmuncha yuqori darajada bo'lishi tajribalarda sinab ko'rilgan. Shuningdek, ayrim sug'oriladigan zonalarda asalarilarni o'simlik gullarini changlatishdagi foydasi va undan olinadigan daromad va samaradorlik arilarni beradigan asal va mum mahsulotiga nisbatan birmuncha yo'qsak bo'lishi tajribalarda sinab ko'rilgan.

Respublikamizda asalarilar tomonidan changlantiriladigan meva, savzavot, gul, paxta, poliz ekinlari va umuman 100 dan ortiq o'simlik turlarining mavjudligi aniqlangan. Ularning orasida keng tarqalganlari: meva beruvchi o'simliklar, kungaboqar, paxta, grechixa, beda, ekspartet, qizil beda, poliz ekinlari va boshqalar asalarilar yordamida changlantirilsa, ularning hosildorligi 20-30 foizga, ayrim hollarda undan ham ko'proq ortar ekan.

Asalarilarning asosiy mahsuloti asal o'zining yuqori kaloriyasi, mazasi, parhyezligi va davolash xususiyatlariga ega ekanligi bilan barcha turdagi oziq ovqatlardan keskin ajralib turadi. U o'zining inson ichki kasalliklarini davolashda yo'qsak shifobaxshligi bilan ham salmoqli o'rin egallaydi. Asal yosh bolalar uchun ham nixoyat foydalidir. Bunga asosiy sabab uning tarkibidagi oddiy qand glyo'qoza, fruktoza, fermentlar, organik kislotalar, turli xil mikroelementlarni bo'lishidir va ular inson organizmi uchun nihoyat zarur ekanligidadir.

Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi bizning respublikamizda tibbiyot fanlarini tobora rivojlanib borayotganligi sababli ko'plab kasalliklarni davolash

ishlarida asalari mayda bola (lichinka)larini oziqlantirishda foydalaniladigan «asalari suti» - (matochnoye molochko), «asalari zahari» va «propolis» (asalari yelimi) kabilar o'z samarasini bermog'da. Barcha viloyatlarda chorvachilikni bu serdaromad va foydali tarmog'ini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqia. Ayrim fermer xo'jaliklari bu sohani rivojlantirishda faollik ko'rsatish uchun bel bog'laganlar. Bunday xo'jaliklar Farg'ona, Andijon va Qoraqalpog'iston tumanlarida salmoqli o'rin egallab kelmoqdalar. Har bir xo'jaliqia 120-200 asalari oilasi boqilayotganligi matbuot sahifalarida ko'rsatilgan.

Asalari Turkiston o'lkasiga birinchi bor 1848 yili Semipalatinsk viloyatidan olib kelingan. Jumladan, Toshkentga 1872 yili Samarqandga 1893 yili keltirilgan. Binobarin, bu tarmoqning afzalliklarini ko'rgan mahalliy aholi uni rivojlantirishga astoydil kirishgan va tashviqot-targ'ibot ishlari olib borilgan. 1926 yili 1970 ta asalari oilasi bo'lgan bo'lsa, 1930 yili 20080 ta asalari oilasi, 1934 yili 19672 ta, 1940 yili 37690, 1970 yili 71672 ta, asalari oilasi bo'lgan. Shuningdek, havaskor asalarichilarda (individual sektorda) 10000 dan ko'proq asalari oilasi bo'lgan. 1980 yilda O'zbekistan viloyatlarida 190 ming asalari oilasi mavjud bo'lgan. 1962 yili O'zbekiston Qishloq xo'jalik vazirligiga qarashli xo'jaliklar pasekalaridan 672,8 t asal yig'ilgan.

O'rmonchilikni rivoj topishi tufayli chorvachilikni boshqa tarmoqlari kabi asalarichilik yo'qsala bordi. Asal ishlab chiqarish yil sayin ortib bordi. 1971 yildan boshlab 5,5 mln gektar o'rmon xo'jaliklarida asal ishlab chiqarish reja asosiga utdi. Bu xo'jalik yerlarining 3570 ming gektari kumlik, 1212 ming gektari tokli massivlar, 1193 ming gektari vodiya va undan 4321 gektari bog'lardan iboratdir. 1977 yili 32 ta urmon xo'jaligi asalarichilik bilan shug'ullangan. 1976 yili Yakkabog' urmon xo'jaligida 364 ta asalari oilasi bo'lib ulardan 6 tonna asal ishlab chiqilgan. Shuningdek, Jizzax urmon xo'jaligida 210 ta asalari oilasidan 4 tonna, Samarkand urmon xo'jaligida 240 oilani har biridan o'rtacha 27,5 kg dan asal olingan.

Asalarichilik barcha ijobiy tomonlari bilan bir qatorda eng katta muammo malakali kadrlarni yetishmasligi sezila boshladi. Binobarin, shunga ko'ra 1977 yili Toshkent sobiq asalarichilik "sovxoz" qoshida 100-o'quvchiga mo'ljallangan bir yillik asalarichilar maktabi va bir oylik malakani oshirish kursi (350-400 tinglovchiga mo'ljallangan) ochildi. Va Pskentda professional-texnika bilim yurti ochildi (O'quv-texnika bilim yurti). Shu tariqa, malakali kadrlar tayyorlash ishlari birmuncha jonlantirib yuborildi.

Asalarilar uchun tabiatdagi barcha xil o'simliklar gulining nektari va changilari oziq manbalari hisoblanadi. Shuningdek, asalarilar uchun suv va mineral moddalar ham talab etiladi.

Nektar - gul bezlari - nektardonlardan ajraladigan shirin suyuqligidir. Ayrim o'simliklarda nektar bezlari guldin tashqarida bo'ladi. O'simliklarning nektar ajratishi chetdan changlanishga moslanishidir. Guldagi nektar hidi hasharotlarni o'ziga jalb etadi. Ular oyoqchalari, qanotlari yordamida guldin gulga changni olib utadi va natijada o'simliklar chetdan changlanadi. Bunday holat tabiatda o'simliklarning tashqi sharoitga moslanish imkoniyatini kuchaytiradi va o'simliklar to'rini saqlanib qolishida muhim rol uynaydi. Nektar tarkibida shakar, suv, mineral tuzlar va boshka tur moddalar uchraydi. Qandlar oddiy va murakkab holda bo'ladi. O'simliklarni turiga ko'ra ular nektaridan shakar va suv miqdori har xil (29-74% gacha) bo'lishi aniqlangan.

Qayta ishlangan nektar - asalga aylantiriladi. U quyidagicha yuz beradi. Asalarilar gul nektarini apparat yordamida asal jig'ildoniga surib olib uyasiga olib keladi. Ishchi asalari nektarni olib kelgach, xartumi yordamida uchmaydigan yosh asalarilar xartumiga beradi. Nektarni qabul qilib olgan arilar uni asal jig'ildoniga shimadi, keyin uni qaytadan xartumiga qusadi. Bu jarayon birnecha marta takrorlanadi va nihoyat nektar asalari jig'ildonida invertaza fermentiga boyiydi. Bu ferment shakarqa-mish shakarini, ya'ni murakkab shakarni oddiy meva va uzum shakarigacha parchalaydi. Sungra bu oddiy shakarlar katakchalarga to'ldiriladi,

ortiqcha suvi bug'lanib ketadi va ularning parchalanish jarayoni davom etishi natijasida u yetilgan asalga aylanadi.

Tayyorlangan, asal solingan katakchalar mum qopqoqchalar bilan berkitiladi. Asal o'zining kimyoviy tarkibiga ko'ra shakar eritmasi konsentrasiyasi va nektardan farq, qiladi. Agar asal tarkibida 18-20 foiz suv bo'lsa, qolgani shakardan iborat. Nektar tarkibida suv ko'proq bo'lib, uning bir kismini shakar tashkil kiladi.

Nektarni asalga aylantirish jarayonining biologik mohiyati shundaki birinchidan, shakarning boyitilgan eritmasi hisoblangan asal uzoq vaqt saqlanganda ham aynimaydi. Binobarin qishlov uchun ko'p miqdorda asal g'amlab qo'yish xam uning shu xususiyatiga asoslangan. Nektarni asalga aylantirish jarayonida murakkab shakar oddiy shakarga parchalanadi. Natijada asalarilar qishlov vaqtida bu oziqni iste'mol qilishda ko'p oziq va energiya sarf qilmaydilar. Shuningdek, ko'p axlat chiqarmaydilar va ortiqcha bezovta bo'lmaydilar. Asalarilar yig'ib kelgan gul changining ahamiyati juda katta bo'lib u uz qiymatiga ko'ra asalga teng turadi.

Asalari qutisi asalari oilasining boshpanasi. Asalarilar yog'ochdan yasalgan maxsus asalari qutisida boqiladi. Hozirda asalari qutisining Dadan-Blatt, yotiq, Rut xillari bor. Dadan-Blatt qutisi asosiy uya korpusidan va bir yoki ikkita magazindan (qo'shimcha ustki korpusdan) iborat. Uya korpusiga eni 435 mm, bo'yi 300 mm li 12 ramka, magazinlarga bo'yi 150 mm li 12 ramka joylashadi, yotiq asalari qutisi korpus va qopqoqdan iborat, 16-24 ramka joylashadi. Rut asalari qutisining tag poli sug'urib olinadigan bo'lib, korpus va 1-2 magazindan iborat. Har qaysi korpus va magazinga eni 435 mm va bo'yi 230 mm li 10 ramka joylashadi. O'zbekistonda, asosan, Dadan-Blatt va Rut kabi tik asalari qutisidan foydalaniladi.

Asalari boqishda va asalarichilik mahsulotlarini qayta ishlashda quyidagi asalarichilik asbob-uskunalar qo'llaniladi 1) to'r bosh, betni ari chaqishdan himoyalashda ishlatiladi. Uning yuzga tutiladigan tomoni qora to'rdan, boshqa

tomonlari chit yoki satindan qilinadi, ikki tomoniga 2,5- 13 mm li metall halqa kiygizilib, ust tomoni boshga kiyiladigan qalpoq gardishiga tikiladi. To'ring simdan qilingan xillari ham bor; 2) tutatgich - asal olishda va asalari oilasini tekshirishda asalarilarni haydashda qo'llaniladi, u korpus va zosqondan iborat, biri-biri bilan metall plastinka yordamida biriktirilgan. Korpus qopqog'i tutunni tegishli tomonga yo'naltirilgan qilib yasalgan; 3) iskana - asalari oilasini tekshirishda ishlatiladi. Uning yordamida asalari qutisi va ramkalar qirib tozalanadi, mum katakli ramkalar olinadi yoki joyidan qo'zg'atiladi. Shuningdeq iskanadan asalari quti korpuslari va magazinlarini bir-biridan ajratishda foydalaniladi. Iskananing bir uchi to'g'ri burchak shaklida egilgan, o'zi po'latdan yasalgan, uzunligi 18-20sm, eni 3-3,5sm va qalinligi 0,3sm; 4) ona uya - asalari oilasidagi ona arini vaqtincha ajratib qo'yishda ishlatiladigan katakcha, sim to'rdan gugurt qutisi kattaligida yasaladi; 5) ko'ch savat - oilasidan bo'lingan asalarilarni ushlab kelish va ularni vaqtincha ushlab turishda ishlatiladi. U tuxum shaklda fanerdan yasaliib, tubi va ochiladigan qopqog'i to'rdan qilinadi; 6) ona uya qalpog'i – mum kataqiagi yangi qo'yilgan ona arini vaqtincha ajratib qo'yishda ishlatiladi, metall gardishga ko'zi 2,5-3 mm li sim to'r sirib tayyorlanadi; 7) to'siq panjara - asalari oilasida bir necha ona ari ketkazishda ishlatiladi, undan ishchi arilar o'tib, ona arilar o'ta olmaydi, tunukadan 448X250 mm kattaliqia yasaladi, tirqishlarining eni 4,4mm, uzunligi 28mm; 8) ramkalarni ko'chirib yurish uchun qopqoqli yog'och yashiq 5-6 ta ramkani olib yurishga muljallangan; 9) teshgich - ramkaning ikkita yondor yog'ochini teshishda ishlatiladi. Asosiy qismlari cho'yan korpus, richagdasta, bigizli 4 ta shtok va ikkita prujinadan iborat; 10) asalarilarga qo'shimcha ozuqa beriladigan oxurcha; 11) g'altak - sun'iy mum katak chetlarini ramkaga zichlab yopishtirishda ishlatiladi, asosiy qismlari yog'och dastali dumaloq metall sterjen va o'qdan iborat; 12) ramkalarning to'ldirilgan mum kataklar ustini kesadigan pichoqni ishlatishdan oldin qaynoq suvga tiqib olinadi; 13) Yopilgan mum kataklar og'zini ochish uchun ishlatiladigan stol korpusining ko'tarma qopqoqlari, jumrakli

idish, isitish asboblari qo'yish uchun ochiladigan yon stollaridan iborat bo'ladi; 14) elak – mum kataklardan ajratib olingan asalni suzishda ishlatiladi, zanglamaydigan tunuka va oqartirilgan sim to'rdan qilinib, asal ajratadigan mashina kraniga osiladi; 15) mum katagidagi asalni ajratib oladigan medogonka, bu mashina markazdan qochirma kuch bilan ishlaydi, radial (katta) va xoodial (kichikroq) xillari bor; 16) asal tindiriladigan idish - alyumin yoki oqartirilgan po'latdan 285 yoki 570 l li qilib yasaladi, 400 yoki 800kg asal ketadi, asalni tindirishda sirlangan idish yoki yog'och bochkalardan foydalanilsa ham bo'ladi; 17) mum katak og'zidan qirqib olingan mumlar, mum chiqitlari oftobda eritiladigan moslama yog'och korpus, tub, ko'tarma qopqoq, oyna bilan o'ralgan rama, tog'ora va isitadigan materiallardan iborat yirik asalarichilik xo'jaliklarida bug' bilan ishlaydigan mum eritgichdan foydalansa ham bo'ladi, bu tipdagi mashinada bir yo'la 25 ramka mum katagini eritish mumkin; 18) asalari uchun sug'orgich - yog'ochdan yoki alyumindan yasaladi, jo'mragi bor, hamisha oftob tushib turadigan joyga qo'yiladi, bunda asalarilarga doimo suv kelib turadi. Asalarizorlarga odatda ikkitasi qo'yiladi, biri chuchuk ikkinchisi sho'r suv bilan to'ldiriladi, suvi har kuni yoki kunorya almashtiriladi; 19) ikki g'ildirakli yengil aravacha - asalari oilasi, asalari qutisi va asalari asbob uskunalari ko'chirib yurishda ishlatiladi.

Respublikamizning tabiiy sharoiti ko'plab o'simliklarni o'sishi uchun nihoyat qulay hisoblanadi. Viloyatlarimizda asalari boqish asosan ko'chma asalarichilikka asoslangan. Binobarin, tovar mahsulotning asosiy qismi shu usul asosida yetishtiriladi. Ko'chma asalarichilik zonalarida asalchilik o'simliklarni xilma-xilligi, o'lkamizda uzoq, vaqt sovuq bo'lmasligi, qish mavsumining qisqaligi, asalarilarning yuvvoshligi, ularni parvarish qilish usullarining oddiyligi ko'plab qimmatli asalari, ona ari, va paketli asalarilar olish uchun katta imkoniyatlar beradi.

Pasekalardan har tomonlama unumli foydalanish maqsadida ularni kuchirish tadbirlari tula-tukis urganilmagan. Lekin, pasekalar vodiylar, etaglar, tuqaqlarda ko'chib yuradi. Ma'lum miqdorda pasekalar Chotqol, Qurama, Boysun, Hisor tizma tog'lariga olib chiqiladi. Qish oylari (dekabr, yanvar, fevral) asalarilar dalaga nektar chang yig'ishga chiqmaydi. Ular zapas oziq bilan oziqlanadilar.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, ob havo yaxshi kelgan yillari (1967) aprel may oylarida xilma-xil cho'l o'tlaridan bir kunda 22,5 kg chang va nektar olish mumkin ekan. Lekin bahor sovuq kelganda chulda va nektar beruvchi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi birmuncha susayib ketadi. Bunday vaqtlarda pasekani cho'lga ko'chirishning hojati bo'lmaydi. Aprelning oxiri va mayning boshida pasekalarni adirlarga, tog' etagidagi xilma-xil o'tlar (xashaki no'xat, erkak o't, karmak, qashqar beda, astragal va lola (qizg'aldoqlar) ko'p o'sadigan joylarga ko'chirish mumkin.

Paxtadan ko'proq, asal oladigan oylar - iyul va avgust hisoblandi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ekiladigan ingichka tolali g'uzalarda asal ko'prok, bo'lishi tajribalarda qurilgan. Masalan, bitta asalari oilasidan olingan tovar asal miqdori 40-70 kg tosh bosgan. O'zbekistonning boshqa zonalarida bu ko'rsatkich 25-30 kg ga to'g'ri keladi. Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, har bir gektar paxtazor maydonidan 20-30 kg chang olinar ekan. Makkajuxori ham ko'p chang beruvchi o'simliklardan hisoblanar ekan.

II BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIGA "QISHLOQ XO'JALIGI ASOSLARI" YO'NALISHI BO'YICHA ASALARICHILIKKA TAALLUQLI MAVZULARNI O'QITISHGA USLUBIY MULOHAZALAR

2.1. Chorvachilikka oid mavzularni o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir uslubiy mulohazalar

Ma'lumki, pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi mehnat ta'limini o'qitish uslubiyati fani fan bo'yicha umumiy yo'nalish beradi. O'qituvchi aniq bir mavzuni o'tish uchun esa unga mos uslubni topish zarur. Bu usul yoki uslubiyati qayerdan olish lozim degan savol muammo paydo bo'lishi tabiiy.

Hozirgi kunda mamlakatimizda nashr qilinayotgan «Pedagogik mahorat», ««Xalq ta'limi», «Ta'lim muammolari», «Pedagogik ta'lim» «Uzluksiz ta'lim», «Kasb-hunar ta'limi», «Ta'lim-taraqqiyoti», «Fizika, informatika, matematika», «Maktab va hayot» , «Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar»» kabi ilmiy – uslubiy jurnallardagi ilmiy maqolalar bilan yosh o'qituvchi tanishib chiqishlari va doim kuzatib borishi zarur. Chunki bu maqolalarda darsni tashkil etish va o'tishning metodika va usullari yoritilib uslubiy mulxazalar berib boriladi.

Dastlab «Ta'lim texnologiyasi», «Yangi pedagogik texnologiya», «Yangi axborot texnologiyasi», «Innovatsiya» kabi tushunchalarini oydinlashtirib olaylik.

«Texnologiya» so'zi yunoncha «tehne», ya'ni «mahorat» , «san'at» va «logos» – «fan» degan so'zlardan olingan. Uning yordamida manbalarda sifat o'zgarishlar ro'y beradi.

Ta'lim texnologiyasi – aniq bir o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan qonun-qoida, metod va usullaridan iborat bo'lib, u ta'limda ko'zlangan maqsadga erishish bosqichlarini o'zida aks ettiradi va ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq boshqarishga erishish imkonini beruvchi jarayon.

Yangi pedagogik texnologiya – ta’lim maqsadlarini aniqlab, o’quv jarayoni rejasini tuzib, ularni joriy etish yordamida ta’lim samaradorligini oshiruvini taminlovchi o’quv jarayonining optimal boshqaruvini o’z ichiga olgan yagona tizimdir.

Yangi axborot texnologiyasi - hisoblash texnikasi va aloqa vositalari asosida axborotlarni to’plash, saqlash va kerakli manbalarga uzatishning zamonaviy usulidir.

«Innovatsiya» so’zi yangilik, isloh qilish degan ma’noni anglatadi.

Dastlab yangi axborot texnologiya tushunchasi ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan qo’llanilgan, yani biror mahsulotni tayyorlashda qo’llanilgan yangi usullar, jihozlar majmuasi bo’lib, bu ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini keskin oshirishga olib kelgan. Hozirgi kunda matbuotda, radio, televidenie, internetda bu masalalarda ko’plab gapirilmoqda. Agar «Yangi texnologiya» tushunchasini ta’lim tizimiga nisbatan ishlatilsa «Yangi pedagogik texnologiya» deb aytiladi. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi to’g’risida ko’plab fikrlar, qoidalar mavjud.

Ularning ba’zilar ustida to’xtalib o’tamiz:

1. Buyo’q pedagoglardan B.Bespalko fikriga ko’ra «Pedagogik texnologiya» - bu o’quv jarayonida amalga oshiriladigan sarmazmun professional usullar majmuasidir»

2. YUNESKO ta’rifi quyidagicha:

Pedagogik texnologiya – bu ta’lim berishning va madaniyat hamda inson qadriyatlarini, ularning o’zaro aloqadorligini hisobga olgan holda bilimni o’zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo’llash va aniqlashtirishning sistemali metodidir.

Umuman olganda pedagogik innovatsiya – pedagogik yangiliklar, ularni o’rganish va baholash va nihoyat uni amaliyotda qo’llash haqidagi ta’limot sifatida qaraladi. Bunda bir qancha olimlar, shu jumladan S.N. Lisenova, F. Shatalov,

Sh.A.Amanashvili, L.V, Peregudov, M.Abdurasulov, shuningdek N.Shodiyev, U.Nishonaliyev, Saidaxmedov, A. R. Xo'jaboyev, R.X. Jo'rayev, M.Tojiyev, J.G'.Yo'ldoshev, O'.Tolipov, N.Muslimov, O.To'raqulov, SH. SHaripov, B.Ziyomuxammedov kabilarning ish tajribalarini olishimiz mumkin.

Hozirgi kunda Yevropa, AQSH, Rossiya, Turkiya va boshqa chet mamlakatlardan yangi pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalari asosidagi o'qitish usul va uslublari kirib kelmoqda va ulardan ta'lim jarayonida foydalanilmoqda. Bunday pedagogik texnologiya usullariga *«Aqliy hujum» usuli*, *«INSERT» usuli*, *Muloqat nazorat darsi*, *Konferentsiya darsi*, *Topog'onlik darsi*, *Boshqotirmalardan foydalanish darsi*, *Test so'rov usuli*, *Rolli saxnalashtirish dars*, *Auktsion darsi*, *Trening darsi*, *Ko'rgazmali dars*

Ularning ayrimlarining mazmun mohiyati bilan tanishib chiqamiz va BMI mavzusida dars o'tish jarayoniga qo'llab ko'ramiz.

1.Test so'rov usuli.

Mashg'ulot maqsadi: O'quvchilar bilimini tezkorlik bilan aniqlashtirishni tashkillashtirish va bu jarayonga o'quvchilarni faol jalb qilish.

Mashg'ulot mazmuni: O'qituvchi o'quvchilarga 2 xil variantda test materiallarini tarqatadi. Bunda test savollari variantlar bo'yicha guruhdagi o'quvchilar soniga mos bo'lishi kerak. Test savollargi javob tayyorlashda guruhchalarni (o'quvchilarni) nazorat qilishda a'lochi o'quvchilardan foydalaniladi. O'z-o'zini nazorat qilish natijasida test savollarni yechishga kirishiladi. Yakunlangan testlarni tekshirish uchun yig'ishtirib olinib, almashtirilib tarqatiladi. Javoblar 2 ta o'quvchi tomonidan o'qib beriladi. Guruhdoshlari esa tekshirshini amalga oshiradi. Darsning o'z-o'zini boshqarish va natijalarni baholashga 3-5 minut vaqt sarflaydi. qolgan vaqtlarda darsning boshqa bosqichlari amalga oshiriladi. Bundan o'quvchilarni 100% baholashga erishiladi.

O'qituvchiga qo'yilgan talablar: O'qituvchi o'quvchilarni bilimini nazorat qilish mezoniga ega bo'lishi kerak. Sinfdagi o'quvchilar bilimini tabaqalashgan

holdagi variantlarga ega bo'lishi kerak va shu asosda a'lochi o'quvchilarni o'quv jarayoni sifatini aniqlashga jalb etish kerak. Dars mashg'ulotlaridagi vaqt byudjeti va ularning taqsimotiga katta e'tibor berish kerak. Test-so'rov usulining turli usullari borligini o'quvchilar bilishi kerak va ular ichdan o'z muammosiga moslarini tinmay bilish ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

O'quvchiga qo'yilgan talablar: O'quvchilar testshunoslik asoslari bilan tanish bo'lishlari kerak. Test savollariga javob berishda savollarga to'g'ri javoblarni qanday izlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Ta'lim vositalari: Test savollari yozilgan kartochkalar. Baho mezonlari. O'quvchilarning test savollarini izlash davomida o'zlarini tutishi haqidagi yo'riqnoma va tavsiyalar.

Asalarichilikka oid mavzularini o'qitishda 6-7 sinflar uchun quyidagicha test namunalaridan foydalanishni tavsiya etiladi.

1. Asalari oilasi bir yilda qancha asal to'playdi,

- A. 40- 50 kg
- B. 340-350 kg
- C. 240-250 kg
- *D. 140-150 kg

2. Asalari oilasini kimlar tashkil etadi

- A. erkak va urg'ochi arilardan iborat
- B. erkak va urg'ochi hamda ishchi arilardan iborat
- *C. ona, ishchi va erkak arilardan iborat
- D. ona, erkak va urg'ochi arilardan iborat

3. Yoz oylari asalari oilasida qancha ishchi ari bo'ladi.

- A. 1000-2000 ta

*B. 3000-4000 ta

C. 2000-3000 ta

D. 4000-5000 ta

4. *Asalarilar qaerda boqiladi.*

*A.yog'ochdan yasalgan maxsus qutida

B. yog'ochdan yasalgan so'rilarida

C. bog' va paxtazorlarda

D. qir va adirlardagi yaylovlarda

5. - gul bezlari - nektardonlardan ajraladigan shirin suyuqlik.

*A. Nektar

B. Shira

C. Asal

D. Sok

6. *Asalari Turkiston o'lkasiga birinchi bor qachon va qaerdan olib kelingan.*

A. 1872 yili Evropadan olib kelingan

*B.1848 yili Semipalatinsk viloyatidan olib kelingan

C. 1872 yili Krasnoyarsk viloyatidan keltirilgan

D. 1902 yili Kavkazdan keltirilgan

7. *Tutatgich nima uchun ishlatiladi*

A. Bosh, betni ari chaqishdan himoyalashda ishlatiladi.

B. Asalari oilasini tekshirishda ishlatiladi. Uning yordamida asalari qutisi va ramkalar tozalanadi

C. asalari oilasi, asalari qutisi va asalari asbob uskunalarini ko'chirib yurishda foydalaniladi

*D. asal olishda va asalari oilasini tekshirishda asalarilarni haydashda qo'llaniladi.

8. Asalarichilikdan qanday maxsulotlar olinadi?

A. iste'mol uchun asal, o'simlik gullarini changlatishda foydalaniladi

B. asal, mum, "asalari elimi", «asalari suti», baliq va tovuqlarga ozuqa.

*C. iste'mol uchun asal, "asalari mumi", "asalari elimi" "asalari zahari", "asalari suti"

D. sanoat uchun mum, elim va asalari zaxari etishtirib berish

9. Asalarilarning yuqumli kasalliklari qaysilar.

*A. Yevropa chirish kasalligi, Amerika chirish kasalligi

B. Nozematoz, Akarapidoz,

C. Braulyoz, Senotainioz

D. Kuydirgi, qorason

10. Asalarilar kasalligi umumiy xolda necha xil bo'ladi

*A. Uch xil: infeksiyon, invazion va yuqumsiz

B. Ikki xil: infeksiyon va invazion

C. Ikki xil: yuqumli va yuqumsiz

D. Uch xil: infeksiyon, invazion va yuqumli

2. Konferensiya darsi.

O'quvchilarga mavzu yoki rejalar oldindan beriladi. O'quvchilar bu mavzu yoki rejalariga mustaqil puxta tayyorgarlik ko'radilar. Har bir sinfdagi o'quvchilarning eng itqtdorli, a'lochi, o'z ustida mustaqil ishlaydigan bolalardan 3-4 tasiga mavzu va rejaga tayyorgarlik ko'rishni chuqur o'rganishi, uning maqsad va vazifalarini, metodologik asoslari, ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy bilimlar uslubini prinsip, qoida-qonuniyatlarini, mavzu rejadagi muammolar, ularning yechimi tahlilini atroflicha o'rganib keladi va mana shu 3-4 ta o'quvchi mavzuni atroflicha

yoritib beradi. Barcha o'quvchilar esa uning kamchiliklarini, yutuqlarini tahlil qilib to'ldiradilar, munozara qiladilar. Boshqaruvchi esa har bir savol, mavzuning qanday va qaysi yo'l, yo'nalish bilan boyitilib borishini, mavudan chetga chiqib ketmasilikni nazorat qilib boradi. Mavzu va savollarning mazmuni, yechimi, muammolarni ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy jihatdan hal etiladi, umumlashtiriladi, xulosa qilinadi. Taklif, tavsiyalar beriladi.

Afzalligi. O'z fikrini mustaqil ifodalashga imkon yaratiladi. Aynan bir mavzu, savol chuqur, atroflicha yechiladi, uning maqsad vazifalar, metodologik asoslari, muammolarini o'quvchilar mustaqil, munozara tarzda bilib oladilar. Darsda o'quvchilar faol ishtirok etadilar, noana'anaviy dars shaklida amalga oshiriladi. O'quvchilar bilmagan narsa, yangiliklarini konferensiya darsida bilib oladilar.

3.Klasterlarga ajratish usuli

Bu usul o'quvchini dars jarayonida o'tilayotgan mavzu ustida erkin va ochiq o'ylashga yordam beradi, dars jarayonida hamma o'quvchining o'z-o'zidan qo'shilib ketishiga olib keladi. U fikrlar orasidagi bog'lanishlarni topishga intiltiruvchi, strukturaviy ajratishlarni talab qiluvchi juda oddiy usuldir.

Buning uchun:

- doska o'rtasiga «kalit so'z» yoziladi. Bizning mavzumizdan kelib chiqib yozadigan bo'lsak, «Chorvachilik tarmoqlari» so'zlarni yozamiz;

- o'qituvchi o'quvchilardan shu tushunchaga bog'liq qanday fikr bo'lsa aytishlarini so'raydi va aytilgan fikrlarni kalit so'z atrofiga yoza boshlaydi. Bunda chorvachilik turlari, ularga ta'sir qiluvchi omillar, chorvachiilikning ahamiyati, chorvachilik mahsulotlari haqidagi ayrim tushunchalar aytiladi va doskaga yoziladi;

- bu yozish jarayoni ajratilgan vaqt tugaguncha yoki hamma fikrlar aytilgan bo'lgancha davom ettiriladi;

- yozilgan barcha fikrlarni sxematik usulda «Chorvachilik tarmoqlari» so'zi bilan bog'laymiz (2.1.1.-shakl).

CHORVACHILIK TARMOQLARI

Qoramolchilik

Xalq xo'jaligi uchun qimmatli mahsulotlar (go'sht, sut, yog', teri va h.k) yetkazib berishda qoramolchilik muhim ahamiyatga ega. Sigir sutidan kazein moddasi, undan esa tugma, kinoplyonka, sun'iy jun, yelim va hako'zalar ishlab chiqariladi. Mollarning terisi yengil va poyabzal sanoatlari uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Mol go'ngi ekin maydonlarining hosildorligini oshirishda qimmatli o'g'it sifatida ishlatiladi. Shuningdek, qoramollarning qoni va ayrim garmonlari tibbiyotda turli dorivorlar (qon zardobi, gemogloblin, gematin, gmatagin va hako'zalar) tayyorlashda ishlatiladi. Qoramollarning shoxi, tuyog'i va suyaklari galanteriya va bezak ishlarida hamda durodgorlik yelimi tayyorlashda ishlatiladi.

Qo'ychilik

Qo'ychilik sanoat uchun jun, mo'yna, qorako'l teri hamda aholi uchun oziq –ovqat sifatida go'sht, yog', sut yetishtiradi. Qorako'l qo'ylardan olinadigan sifatli rang-barang tovlanib turadigan qorako'l, qorako'l-qorako'lcha, qorako'lcha deb ataladigan mo'yna teri dunyo bozorida oltin bahosiga sotiladi. Qorako'l terilaridan bosh kiyimlar yoqa tayyorlanadi va yuqori narxlardan baholanadi. Qo'y sutidan turli xil mahsulotlar, pishloq, brinza kabilar tayyorlanadi. Umuman, qo'ylarning asosiy mahsuloti jun hisoblanadi, ulardan olinadigan sifatli va xilma-xil junlardan boshqa biror hayvondan olib bo'lmaydi.

Parrandachilik

Parrandachilik chorvachilikning serdaromad, serpusht va tez yetiluvchan tarmog'i hisoblanadi. U xalqimizga ko'plab sifatli parhez taom –tuxum va parranda go'shti yetkazib beradi. Ayniqsa, tovuq, o'rdak, g'oz va kurkachilik bilan shug'ullanuvchi tarmoqlari qishloq xo'jaligi parrandachiligning asosiy va yetuk sohasi hisoblanadi. Ulardan qisqa vaqt ichida ko'p miqdorda mazali go'sht olinadi. Parranda go'shti tez hazm bo'lish xususiyatiga ko'ra barcha turdagi chorva mollari go'shtidan ustun turadi. Bundan tashqari ulardan yengil sanoat uchun par va pat yetishtirib beriladi, go'ngidan o'qit sifatida foydalaniladi.

Yilqichilik

Yilqichilik chorvachilikning muhim sohasi. Ayrim tumanlarda qishloq xo'jaligi ishlarining bir qismi (qariyb 20 %) ot kuchi bilan bajariladi. Masalan, otlar aravaga qo'shilgan holda qishloq xo'jalik mashinalariga yoqilg'i va suv tashib beradi, shuningdek ildizmevalarga ishlov berishda, chorvachilikda ayrim transport yordamida bajariladigan ishlarni amalga oshirishda va boshqa bir qator ishlarni bajarishda yaqindan yordam beradi. Bundan tashqari tog'li tumanlarda otlar yuk tashish ishlarini bemalol bajara oladi. Chegaralarni qo'riqlashda, ayniqsa tog' va o'rmon hamda cho'l zonalarida otlar posbonlarimizni uzoq masofalarga olib borishda muhim transport vositasi hisoblanadi. Sport o'yinlarida ham yilqilardan foydalanish yildan –yilga kengayib bormoqda. Otlar o'zining turli xil mahsulotlari (go'sht, qimiz, teri va boshqalar) bilan katta xalq xo'jaligida ahamiyatiga ega.

Quyunchilik

Quyon mo'ynasi rang-barang, yengil, chiroyli va arzonga tushushi tufayli undan ko'p foydalaniladi. Undan bolalar paltosi, telpak, yoqa, poyafzal tayyorlanadi. Quyon go'shti o'zining sifati, barraligi va parhezligi bilan boshqa tur hayvonlar go'shtidan farq qiladi. Bunga asos sifatida ularning tez ko'payishi, tez yetiluvchanligi va turli xildagi yem –xashaklarni iste'mol qilishi kabi xususiyatlarini ko'rsatish mumkin. Yiliga bitta ona quyon hisobiga 70-80 kg go'sht va 25-35 dona mo'yna yetishtirish mumkin. Quyon go'shti o'zining hazm bo'lishi va oqsil moddalarga boyligi bilan chorva mollar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, bir kilogramm quyon go'shti yetishtirish uchun qo'y, cho'chqa yoki qoramol go'shti tayyorlashdagiga nisbatan kam oziq talab etiladi. Quyonlardan juda mayin va nozik tivit o'am olinadi, undan sharf, ro'mol, sviter, beretka, paypoq va boshqalar to'qiladi. Shuningdek, quyon terisidan qo'lqop, sumka, yengil oyoq kiyimi ham tayyorlanadi.

Tuyachilik

Tuyalar o'zlarining biologik xususiyatlariga ko'ra barcha turdagi chorva mollaridan farq qiladigan, asosan suvsiz dasht va sahrolar zonasiga tarqalgan hayvon hisoblanadi. Tuyalar asosan Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan ko'p yerlarda qorako'lchilikda foydalaniladigan qimmatli ish hayvonidir. Ko'p joylarda tuyalardan transport vositasida sifatida foydalanilsa, ularning yana qimmatli tomoni ma'lum miqdorda go'sht, jun va sut yetishtirib berishdan iboratdir. Umuman qishloq xo'jaligi hayvonlari ichida birorta hayvon turi yo'qqi ular tuyalardek cho'l, dasht va sahro sharoitiga nihoyatda yaxshi moslashgan bo'lsin.

4. Kasbga bog'lab dars o'tish.

Qo'llanilishi. O'qituvchi r 2.1.5.-shakl hilarning kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida kasbga bog'lab dars o'tadi. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni biror-bir kasbga qiziqtirishdir. Bunda mavzuni yoritishda kasb-hunarga oid xayotiy misollar dars jarayonida o'quvchilarga tushuntiriladi. Chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik, dehqonchilik, zardo'zlik, naqqoshlik, ustachilik, haydovchilik, sport ustalari haqida ma'lumotlar, xayotda erishilgan yutuqlardan bolalarni xabardor qilinadi. Kasb-hunarga oid savol-javoblar, bahs-munozara, suhbat, kasb-hunarni egallagan shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Buni dars jarayonida qilsa ham bo'ladi. Kasb-hunar haqida o'quvchilaga ma'lumot berib turib, ularni ya'ni hunarli kishilarni darsga taklif qilish orqali ma'lum bir vaqt ichida ular o'zlarining faoliyatini kelajak uchun, jamiyat uchun foydasi haqida savol-javob qilinadi. Bu bilan dars noana'naviy tashkil etiladi.

Afzalligi. O'quvchilar dars jarayonida nafaqat bilim oladilar balki kasb-hunarga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'quvchilarning kasbiy qiziqishlari ortadi. Kelajakda ma'lum bir kasbni egallay olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dars hayotiy, noana'naviy o'tadi. O'quvchilar mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga ega bo'ladilar. Shuningdek, dars jarayonida kasb-hunarga qiziqishlar ortadi.

5. Auktsion dars

Mashg'ulot maqsadi: Dars samaradorligini oshirishda qulay usullarni tanlash.

Mashg'ulot mazmuni: Auktsion darsda o'rganilayotgan mavzuga mos asalarichilik elementlariga oid narsa va buyumlar haqida fikrlar bildirib, o'qituvchi auktsionni ochib beradi va narsa va buyumlar (masalan o'quv qurollari) bilan tinglovchilarga murojaat qilinadi. Masalan, Bunda 3 ta o'quvchi sahnaga chiqib bittasi ona asalarilarni (ularning rasmlari asosida), bittasi ishchi asalarilarni, bittasi erkak asalarilarni ta'riflab beradi. Mahsulotlarni sotish uchun avvalo ularni reklama qilishlari va haridor chaqirishlari lozim. Bu jarayonda ta'lim

oluvchilarning faolligini baholashda ularning qanchalik ko'p mahsulot (mol) tayyorlanganligini, mahsulotlarni reklama qilish va sotish qobiliyati, shuningdek xaridor bilan muomalasi ham e'tiborga olinadi.

O'qituvchiga qo'yilgan talablar: O'quvchi reklama va xaridor chaqirishda faolligi ta'minlashda o'qituvchi roli aniq sezilishi kerak. Xaridor bilan muomalani shakllantirish va ishbilarmonlik ham ularda asosiy vazifa bo'lib qoladi.

O'quvchiga qo'yilgan talablar: O'quvchilar darsning har bir jayonida e'tiborsiz qolmasligi kerak. Ayniqsa ishbilarmonlik jarayonlarida ular o'zlarini ko'rsatishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan pedagogik texnologiyalar va boshqa o'qitishning faol usullaridan foydalanib darslarni o'tkazish o'quvchilarda mehnat ta'limidan bilim, malaka, va ko'nikmalarning shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

KTMDning tadbirlarida kunda ta'lim jarayonini axborotlashtirish, dars vaqtida axborot texnologiyalaridan foydalanishni qayd etib qo'yilgan va shu boisdan ilmiy-tadqiqot ishlarimizda o'qitishni takomillashtirishda axborot texnologiyalarini joriy etishni maqsadlarimizdan biri sifatida qaramoqdamiz.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari har qanday kasbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismidir. Lekin mutaxassislar faqat informatika va axborot texnologiyalari asoslarini o'rganish bilangina cheklanadilar. Holbuki bunda mutaxassisliklar va kasbiy yo'nalganlik e'tiborga olinmaydi. Oxir –oqibatda axborot texnologiyalari bo'yicha umumiy bilimga ega bo'lgan bitiruvchilar kompyuterlarni qo'llab o'ziga xos kasbiy kasbiy masalalarni yechishga qiyinchilikka duch kelishadi. Mutaxassisliklarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning hozirgi zamon bosqichida yangi ta'lim texnologiyalarini loyihalashning ilmiy –uslubiy muammosi dolzarb hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarini axborotlashtirmasdan turib, bo'lajak mutaxassislarnig kasbiy (xususan, axborot) tayyorgarligini oshirib bo'lmaydi. Ta'lim muassasalarini

axborotlashtirishda, eng avvalo, quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor berilishi lozim:

- ma'muriy –boshqaruv ishini takomillashtirish;
- informatika kursi mazmunini takomillashtirish;
- yangi axborot texnologiyalarini qo'llash asosida ilmiy- uslubiy va tajriba eksperiment ishlarni takomillashtirish;
- o'quv jarayonida va fanlar bo'yicha darslarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- axborot texnologiyalaridan foydalanib saboq beradigan o'qituvchilar va boshqa xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha ishlarni reja asosida tashkil etish;
- yangi texnologiyalardan foydalangan holda o'quv –tarbiya jarayonini takomillashtirish;

-axborot –markazining moddiy –texnik bazasini takomillashtirish va hakoza

Bugungi kunda Mehnat ta'limi fanini o'qitishda umumta'lim maktablarida quyidagi asosiy axborot texnologiyalarini qo'llash mumkin: chop etilgan materiallar (darslik, qo'llanma va hakoza); audiokassetalar, videokassetalar va videokliplar; telefon; radio va televidenie (jumladan, sun'iy yo'ldoshli va kabelli); elektron aloqa; kompyuterli o'qitish dasturlari; elektron kitoblar ; teleanjumanlar (audioanjumanlar, audiografik, anjumanlar, videoanjumanlar, kompyuterli anjumanlar).

Ushbu texnologiyalar o'zlarining parametrlari to'plamlari bilan o'zaro farq qiladilar va ularning turlicha bo'lishi ularni tanlash muammosini dolzarb qilib qo'yadi.

Quyida men ana shunday axborot texnologiyalarining mehnat ta'limida qo'llash mumkin bo'lgan ayrim jihatlari haqidagi fikr –mulohazalarni yoritmoqchiman.

Multimedia – bu zamonaviy axborot texnologiyasidir. Axborot biror hodisa, buyum yoki biror harakat to'g'risida ma'lumotdir.

«Multi» -ko'p, «media» -vosita ya'ni «ko'p vositali» demakdir. Multimedia bu informatikaning, informatsiyaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn grafikasi va animatsiya (ob'ektning fazodagi harakati) effekti asosida o'quv materialini, o'quvchilarga etkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Agar o'quvchi axborotni ko'z orqali qabul qilsa, uning o'quvchi xotirasida saqlanib qolishi 25-30 % ga oshsa, multimedia asosida dars o'tilsa axborotning xotirada saqlanishi 75% ga etadi. Bizning vazifamiz mehnat ta'limi darslarida bu vositalardan foydalanib dars o'tish usuli va uslubini ishlab chiqishdir. Buning uchun dastur tuzish darkor.

2.2. Asalarichilikni tashkil etishga oid mavzularni o'rgatishga taalluqli bo'lgan dars ishlanmasi

O'rta umumta'lim maktablarining 7 -sinf o'quvchilariga “Qishloq xo'jaligi asoslari” yo'nalishidagi “Qishloq xo'jaligi mehnati” bo'limida chorvachilikka oid o'rgatiladigan mavzulardan biri “Asalarichilik faoliyatini tashkil etish” mavzusini o'rgatishga 2 soat vaqt ajratilgan. Ushbu mavzuda dars o'tish chorvachilikning asalarichilikka oid turlari haqida batafsil ma'lumot berishga kamlik qiladi. Shu boisdan ham ushbu ajratilgan dars soatidan unumli foydalanish lozim. Quyida ana shu mavzuni o'rgatish orqali o'quvchilarga asalarichilikka oid namunaviy dars rejasini taklif etamiz.

Darsning mavzusi:

“Asalarichilik faoliyatini tashkil etish”

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsadi:

O'quvchilarga asalarichilik asoslari to'g'risida, asalarichilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risida, asalarichilikda ishlarni tashkil qilish , asalarilarni oziq manbalari, asalarilardan olinadigan mahsulotlar to'g'risida batafsil ma'lumot berish .

b) Tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchilarda asalarichilik sohasi, asalarilarni oziq manbalari va parvarishlash usullarini, asalarilarning kasalliklari o'rganish orqali o'quvchilarga mehnat tarbiyasini shakllantirish.

v) Rivojlantiruvchi maqsadi:

O'quvchilarda asalarichilikning ahamiyati asalarichilikni rivojlantirish, chorvachilikdan asalarilardan foydalanishiga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, oldingi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash hamda ularni kasbga yo'naltirish.

Darsning vazifasi:

Asalarichilikning ahamiyati to'g'risida ma'lumot berish bilan o'quvchilarda asalarichilikning ahamiyati, asalarilarni oziqlantrish va asal to'plash to'g'risida ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularni kasb tanlashga yo'llashdan iborat.

Darsni o'tish shakli: nazariy

Dars uchun kerakli jihoz va ko'rgazmali qurollar:

Asalarichilik sohasiga oid ko'rgazmali qurollar

Dars mazmuni va borish tartibi.

Dars rejasi:

- a) asalarichilik va unung ahamiyati*
- b) asalarilar oilasi to'g'risida tushuncha*
- c) asalarichilik asbob-uskunolari to'g'risida tushuncha*
- d) asalarilar kasalligi to'g'risida tushuncha*

Tayanch so'z va iboralar: asalarichilik, asal, nektar, asal mumi, asal zahari, to'r, tutatgich, iskana, ona uya, ko'ch savat, ona uya qalpog'i, to'siq panjara, teshgich, asalarilari oxurchasi, g'altak, elak, medogonka, asal tindiriladigan idish, asalari uchun sug'orgich, ikki g'ildirakli yengil aravacha

Mavzu bayoni reja asosida olib boriladi:

a) asalarichilik va unung ahamiyati

Asalarichilik qishloq xo'jaligining bir sohasi, asal, mum olish va hasharotlar bilan changlanadigan ekinlarni changlatish uchun asalari boqish demakdir. Qadim zamonlarda odamlar asal va asalari mumini daraxtlarning kovaklaridan olishgan. Asalarilarni qutilarda boqish usuli 19-asrda paydo bo'lgan. Asalarisimonlar

mo'tadil va subtropik iqlimli o'lkalarda rivojlangan. O'zbekistonda Asalari oilalarini ko'paytirish uchun maxsus joy ajratiladi. Odatda bunday joy asalarilarni qishda asrashga ham mo'ljallangan bo'ladi. Buning uchun daraxt va butalar bilan o'ralgan, shamol tegmaydigan joylar tanlanadi; bu daraxtlar ayni vaqtda asalli o'simliklar bo'lishi kerak shu bilan birga, ular asalari qutilarini oftobdan saqlaydi. O'zbekistonda asalarilar ko'klamdan to kech kuzgacha serasal o'simliklar ko'p bo'lgan tog'larda asralib, qish boshlanishi oldidan qishlov joyiga keltiriladi. Shu yo'l bilan yillik asal yig'imi oshiriladi, shunday joylar olmozor, bedazorlar va g'o'za paykallari yonida barpo etiladi.

b) asalarilar oilasi to'g'risida tushuncha

Asalari oilasi ona, ishchi va erkak arilardan iborat. Ona asalari bitta (bo'yi 20-25 mm, vazni 220-250 mg) bo'lib, tuxum qo'yish va oilani boshqarish vazifasini bajaradi. Qanoti tanasining yarmini qoplaydi, xartumi ishchi arilarnikiga qaraganda qisqa, urug'langandan keyin bir sutkada 1500-2000 ta tuxum qo'yadi. Ona ari erkak ari bilan havoda qo'shilishadi. Ishchi arilar (bo'yi 12-14mm, vazni 100 mg) oilada 60-70 mingta bo'lib, qishda kamayadi, soatiga 60 km tezliqia ucha oladi. Oiladan 2-3 km va undan ham uzoq masofaga uchib borib, shira olib kelish va gul changini yig'ish, nektarni asalga aylantirish, mum ishlash, qurtlarini boqish, katak qurish, uyasini qo'riqlash kabi ishlarni bajaradi. Erkak asalarilar (bo'yi 15-17 mm, vazni 180-190 mg) yozda ona arilar urchiydigan paytda yashaydi, qish kirish oldidan ularni ishchi arilar haydab chiqaradi. Erkak asalarilarning vazifasi nasl qoldirish bo'lib, ular tayyor ovqat hisobiga yashaydi. Asalari oila a'zolarining xizmat faoliyati o'zaro bog'liq bo'lganidan ularning birortasi ham mustaqil hayot kechira olmaydi. Asalarining bir juft elaksimon va 3 ta oddiy ko'zi bo'ladi. Elaksimon ko'z bilan, asosan uzoqni, oddiy ko'z bilan gulga qo'ngandagina ko'radi.

O'zbekistonda asalari oilasi bir yilda 140-150 kg asal to'playdi, bundan 100 kg o'z ta'minotiga sarflansa, 40-50 kg ajratib olinadi. Asalari ramkasidagi asal uning ta'minotiga yetarli bo'lmasa, ari sun'iy tayyorlangan shira bilan boqiladi. Bunda 1 l suvga 1 kg qand solib qaynatiladi, Tayyorlangan shira sovigandan so'ng asalari uyalariga qo'yiladi. O'zbekistonda asalarining O'rta rus qoramtir o'rmon, Kavkaz kul rang tog', Uzoq Sharq, Italiya, Ukraina kabi zotlari bor. O'rta rus qoramtir o'rmon asalarisi tez rivojlanishi, ko'p asal to'plashi, sovuqqa chidamliligi bilan ajraladi.

c) asalarichilik asbob-uskunalar to'g'risida tushuncha

Asalari boqishda va asalarichilik mahsulotlarini qayta ishlashda quyidagi asalarichilik asbob-uskunalar qo'llaniladi:

1) to'r bosh, betni ari chaqishdan himoyalashda ishlatiladi. Uning yuzga tutiladigan tomoni qora to'rdan, boshqa tomonlari chit yoki satindan qilinadi, ikki tomoniga 2,5- 13 mm li metall halqa kiygizilib, ust tomoni boshga kiyiladigan qalpoq gardishiga tikiladi. To'ring simdan qilingan xillari ham bor;

2) tutatgich - asal olishda va asalari oilasini tekshirishda asalarilarni haydashda qo'llaniladi, u korpus va zosqondan iborat, bir-biri bilan metall plastinka yordamida biriktirilgan. Korpus qopqog'i tutunni tegishli tomonga yo'naltirilgan qilib yasalgan;

3) iskana - asalari oilasini tekshirishda ishlatiladi. Uning yordamida asalari qutisi va ramkalar qirib tozalanadi, mum katakli ramkalar olinadi yoki joyidan qo'zg'atiladi. Shuningdek iskanadan asalari quti korpuslari va magazinlarini bir-biridan ajratishda foydalaniladi. Iskananing bir uchi to'g'ri burchak shaklida egilgan, o'zi po'latdan yasalgan, uzunligi 18-20sm, eni 3-3,5sm va qalinligi 0,3sm;

4) ona uya - asalari oilasidagi ona arini vaqtincha ajratib qo'yishda ishlatiladigan katakcha, sim to'rdan gugurt qutisi kattaligida yasaladi;

5) ko'ch savat - oilasidan bo'lingan asalarilarni ushlab kelish va ularni vaqtincha ushlab turishda ishlatiladi. U tuxum shaklda fanerdan yasaliib, tubi va ochiladigan qopqog'i to'rdan qilinadi;

6) ona uya qalpog'i – mum katagidagi yangi qo'yilgan ona arini vaqtincha ajratib qo'yishda ishlatiladi, metall gardishga ko'zi 2,5-3 mm li sim to'r sirib tayyorlanadi;

7) to'siq panjara - asalari oilasida bir necha ona ari ketkazishda ishlatiladi, undan ishchi arilar o'tib, ona arilar o'ta olmaydi, tunukadan 448X250 mm kattalikda yasaladi, tirqishlarining eni 4,4mm, uzunligi 28mm;

8) ramkalarni ko'chirib yurish uchun qopqoqli yog'och yashik 5-6 ta ramkani olib yurishga mo'ljallangan;

9) teshgich - ramkaning ikkita yondor yog'ochini teshishda ishlatiladi. Asosiy qismlari cho'yan korpus, richag dasta, bigizli 4 ta shtok va ikkita prujinadan iborat;

10) asalarilarga qo'shimcha ozuqa beriladigan oxurcha;

11) g'altak - sun'iy mum katak chetlarini ramkaga zichlab yopishtirishda ishlatiladi, asosiy qismlari yog'och dastali dumaloq metall sterjen va o'qdan iborat;

12) ramkalarning to'ldirilgan mum kataklar ustini kesadigan pichoqni ishlatishdan oldin qaynoq suvga tiqib olinadi;

13) Yopilgan mum kataklar og'zini ochish uchun ishlatiladigan stol korpusining ko'tarma qopqoqlari, jo'mrakli idish, isitish asboblari qo'yish uchun ochiladigan yon stollaridan iborat bo'ladi;

14) elak – mum kataklardan ajratib olingan asalni suzishda ishlatiladi, zanglamaydigan tunuka va oqartirilgan sim to'rdan qilinib, asal ajratadigan mashina kraniga osiladi;

15) mum katagidagi asalni ajratib oladigan medogonka, bu mashina markazdan qochirma kuch bilan ishlaydi, radial (katta) va xoodial (kichikroq) xillari bor;

16) asal tindiriladigan idish - alyumin yoki oqartirilgan po'latdan 285 yoki 570 l li qilib yasaladi, 400 yoki 800 kg asal ketadi, asalni tindirishda sirlangan idish yoki yog'och bochkalardan foydalanilsa ham bo'ladi;

17) mum katak og'zidan qirqib olingan mumlar, mum chiqtlari oftobda eritiladigan moslama yog'och korpus, tub, ko'tarma qopqoq, oyna bilan o'ralgan rama, tog'ora va isitadigan materiallardan iborat yirik asalarichilik xo'jaliklarida bug' bilan ishlaydigan mum eritgichdan foydalansa ham bo'ladi, bu tipdagi mashinada bir yo'la 25 ramka mum katagini eritish mumkin;

18) asalari uchun sug'orgich - yog'ochdan yoki alyumindan yasaladi, jo'mragi bor, hamisha oftob tushib turadigan joyga qo'yiladi, bunda asalarilarga doimo suv kelib turadi. Asalarizorlarga odatda ikkitasi qo'yiladi, biri chuchuk ikkinchisi sho'r suv bilan to'ldiriladi, suvi har kuni yoki kunorya almashtiriladi;

19) ikki g'ildirakli yengil aravacha - asalari oilasi, asalari qutisi va asalari asbob uskunalarini ko'chirib yurishda ishlatiladi.

d) asalarilar kasalligi to'g'risida tushuncha.

Asalarilar kasalligi uch xil: infeksiy, invazion va yo'qumsiz bo'ladi. Infeksiy kasalliklarning qo'zg'atuvchisi o'simlik tanasidagi bakteriyalar, viruslar va zamburug'lar hisoblanadi. Invazion kasalliklarning kuzrag'uvchilari bir xujayrali va ko'p xujayrali parazit hayvonlardir.

Yuqumsiz kasalliklar asalari oilasining hayoti uchun kerak bo'lgan sharoitlarning buzilishi natijasida vujudga keladi. Agar bu sharoitlar tiklansa kasallik o'z-o'zidan yo'q, bo'lib ketadi.

Asalari oilalarini sog'aytirish uchun kasalliklarni o'z vaqtida aniqlab, unga qarshi ko'rashda davolash, sanitariya va profilaktika tadbirlarini olib borish talab etiladi.

Asalarilarning yuqumli kasalliklari quyidagilar: Yevropa chirish kasalligi, Amerika chirish kasalligi shular jumlasiga kiradi.

Invazion kasalliklari: Nozematoz, Akarapidoz, Braulyoz va Senotainioz kabilari hisoblanadi.

Asalari biti (*Braula soyesa*)-qo'sh qanotlilar turkumiga mansub jigar rang hasharot. Bo'yi 1-1,5 mm tanasi qora tukchalar bilan qoplangan, boshi katta, yalpoq, ko'kragi qisqa, qorni (tanasi) tuxumsimon cho'ziq, oyoqlari qisqa, tirnoqlari bor. Xonaki asalarilar hisobiga yashaydi. Asalarilarni qo'riqlash uchun uya tez-tez ko'zdan kechirib turiladi va asalari biti tuxumlari va qurtlari yo'qotib boriladi.

Asalari bo'risi filant (*Philanthus triangulum*) - Sphecidae oilasiga mansub hasharot, bo'yi 1,5 sm keladi. Uyasini yerga (1 m gacha chuqur kovaklarga) qo'yadi. Erkaklari o'simliklar bilan, urg'ochilari asalarilar bilan oziqlanadi, urg'ochisi asalarini belidan ezib, shirasini chiqaradi va shu bilan ovqatlanadi. O'ldirgan arilarini uyasiga olib borib, ular bilan bolalarini boqadi. Asalari bo'risi asalarichilikka katta ziyon yetkazadi. Ularni yo'qotish uchun uyalariga DDT, geksaxloran va boshqa zaharli moddalar purkaladi, asalari boshqa joyga ko'chiriladi.

Asalari yiring kasalligi asalarilarning qurti (lichinkasi) va g'umbagida uchraydigan yuqumli kasallik Bunda qurt va g'umbak chirydi, yiringlaydi. U boshlang'ich davrda sezilmasligi ham mumkin. Bu kasallik bilan og'rigan asalari oilasida qurtlar bir tekis o'smaydi. Asalarilarning kasallanganini bilish uchun qurt yoki g'umbakka gugurt cho'pi suqib olinsa, yiring cho'p bilan cho'zilib chiqadi. Asalari yiring kasalligi qurtda bo'lsa, Yevropa yiring kasalligi deb, g'umbagida bo'lsa Amerika yiring kasalligi deb ataladi. Ikkala kasallik ham O'zbekiston asalarilarida uchraydi. Asalari yiring kasalligiga qarshi ko'rash choralari; kasallik yengilroq bo'lsa, qurt va g'umbaklarga beriladigan qo'shimcha ozuqaga norsulfazol, penisillin va boshqa dorilar qo'shiladi, og'ir bo'lsa, asalari oilasining joyi yangilanib, shifobaxsh sharbat (1 l suvga 1 kg shakar, 1 g norsulfazol qo'shib tayyorlanadi) bilan (har bir oilaga 100 g dan har 4-5 kunda) oziqlantiriladi.

Mavzuni mukammal o'zlashtirish yuzasidan usulubiy tavsiyalar.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarda etarli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishi uchun o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun oldingi paragraflarda ko'rib o'tilgan «Aqliy hujum» usuli, Konferentsiya darsi, Test so'rov usuli, Auktsion darsi, Kasbga bog'lab dars o'tish, Klaster usuli, Ko'rgazmali dars kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'tilgan mavzuning o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish maqsadida o'quvchilarga quyidagi savollarni berish kerak.

1. Asalarilarning xalq xo'jalik ahamiyati to'g'risida nimalarni bilasiz.
2. Asalarilardan qanday mahsulotlar olinadi.
3. Asalarilar oilasining tarkibi va biologiyasi to'g'risida so'zlab bering.
4. Asalarilarni oziq manbalari to'g'risida tushuncha bering.
5. Asalarilarning qanday kasalliklarini bilasiz?
6. Asalarilar oilasini ko'chirish tadbirlari to'g'risida so'zlab bering?

Darsni mustahkamlash.

Bunda o'quvchilarga berilgan savollarga olingan javoblar tahlil qilinadi qo'shimcha bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi. Berilgan javoblar noaniq bo'lsa qaytadan tushuntiriladi. Aytilgan noto'g'ri fikrlar tuzatiladi.

Darsni yakunlash.

O'quvchilar bergan javoblariga qarab o'qituvchi har bir javob bergan o'quvchiga rag'batlantiruvchi baho qo'yiladi. Baholar izohlanadi. Yaxshiroq baho olishga intilgan o'quvchilarga qo'shimcha savollar beriladi

Uyga vazifa

Uyda bajariladigan vazifa quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) Asalarichilik sohasi haqidagi ma'lumotlarni o'rganish;

b) Asalarilarni parvarishlash uchun zaruriy ozuqa moddalari to'g'risida ma'lumotlar to'plash va ularni o'rganish

s) Asal olish va to'plash qoidalarini o'rganib, referat tayyorlash.

Ish o'rinlari va xonani yig'ishtirish.

Mashg'ulot tugagandan so'ng har bir o'quvchi o'z ish o'rnini yig'ishtirib, foydalanilgan ko'rgazmali qurollar joy - joyiga qo'yadi. Navbatchi o'quvchilar esa xonani yig'ishtiradi.

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va bajarishda bugungi kunda bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarini belgilash, ularning ta'limni takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarning samaralari haqidagi xulosalar olindi.

Ushbu ishni bajarish jarayonida oldimizga qo'yilgan maqsadga erishildi va quyidagi natijalar olindi:

- chorvachilik asoslari va uning xalq xo'jaligida ahamiyatini o'rganishga taalluqli bo'lgan dars materiallari tahlil qilindi;

- asalarilari haqida ma'lumot beruvchi o'rganishga mo'ljallangan dars materiallari pedagogik – psixologik tahlil qilindi;

- asalarichilikni tashkil etishga oid dars materiallari pedagogik –psixologik tahlil qilindi;

- shorvachilikka oid mavzularni o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir uslubiy mulohazalar berildi;

- asalarichilikni tashkil etishga oid mavzularni o'rgatishga taalluqli bo'lgan dars ishlanmasi tuzildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tattanali marosimdagi ma'ruzasi. Toshkent. 6 dekabr 2013 yil.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
3. Karimov I. A. Yo'qsak ma'naviyat- yengilmas kuch.Toshkent, Ma'naviyat. 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, O'zbekiston, 2009
5. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).
6. Karimov I. A, Dehqonchilik taraqqiyoti - farovonlik manbai. Toshkent, O'zbekiston. 1994. 47 b.
7. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti. 4-maxsus son. 1999 y.
8. Bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablar. Oliy ta'lim , 1- qism. Toshkent
9. Avizov A.G., Xamroqulov R.X. Chorvachilikdan amaliy mashg'ulotlar.Toshkent. O'qituvchi, 1980.
10. Ataboeva X.N. O'simlikshunoslik. Toshkent, Mehnat, 2000. 270 b.

- 11.Davlatov K. D. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1992.
- 12.Ermatov A. , G'aniev V. «Dehqonchilik». Toshkent «Mehnat». 1990
- 13.Hamdamiyov Yu. Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya(interfaol darslar). Toshkent. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2007 y
- 14.Hayitov F.I. va b. Bitiruv malakaviy ishini yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Jizzax - 2008 y.
15. Ikromov T. X. Chorvachilik. Toshkent. "Mehnat" 1985.
- 16.Muhammedov G'. I., To'raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik – tadqiqotlarning ilmiy nazariy asoslari (O'quv qo'llanma), Jizzax -2004
- 17.Murtozayev M.Z. Mehnat ta'limining qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi. 7-sinf uchun darslik Toshkent. Fan va texnologiya 2012
- 18.Txorjevskiy D.A. tahriri ostida. Mehnat ta'limi metodikasi. Toshkent, O'qituvchi. 1987
- 19.Shamsiyeva Z. Mehnat ta'limi. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va tavqim-mavzu rejalar (1-9 -sinflar). Toshkent . Sharq.2010.
- 20.Vorobyov A.I. "Mehnat ta'limi" 6- sinf uchun darslik . Toshkent O'qituvchi. 1997
- 21.Vavilov P. P. va boshq. O'simlikshunoslik. M., Kolos, 1986. 511 b.